

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Vohidov A.A.**

**FORS TILI**

**(Sodda gap sintaksi)**

Mazkur qo'llanma talabalarni fors tilidagi sodda gaplar sintaksisiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiradi, jumladan, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli sodda gaplarni bir-biridan ajratish, ularning tarkibini tahlil qilish muammolarini qiziquvchilar e'tiboriga havola qiladi. Qo'llanma bakalavriat va magistratura talabalari, aspirantlar, mustaqil tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilarga tavsiya etiladi.

**Toshkent- 2009**

Mazkur qo'llanma talabalarni fors tilidagi sodda gaplar sintaksisiga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiradi, jumladan, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli sodda gaplarni bir-biridan ajratish, ularning tarkibini tahlil qilish muammolarini qiziquvchilar e'tiboriga havola qiladi. Qo'llanma bakalavriat va magistratura talabalari, aspirantlar, mustaqil tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilarga tavsiya etiladi.

Tuzuvchi: f.f.n., dotsent Vohidov A.A.

O'quv qo'llanmasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti O'quv-uslubiy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2009 yil - dagi - sonly majlis bayonnomasi)

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009

## **Birinchi mavzu**

### **Gap nazariyasining ayrim masalalari**

- 1.Gap - tugallangan ma`no ifodalovchi nutq birligi.**
- 2.Gap va so‘z birikmasi.**
- 3.Gap bo‘laklarining birikish usullari.**

#### **Tayanch so‘zlar va iboralar**

*Gap, so‘z birikmasi, izofa, bitishuv, old ko‘makchili birikuv, egalik qo‘sishimchasili birikuv, intonatsiya, moslashuv, bog‘lovchili birikuv, appozisiya.*

#### **Gap - tugallangan ma`no ifodalovchi nutq birligi Gap va so‘z birikmasi**

So‘z birikmasi gapdan nimasi bilan farq qiladi? Gap, ya`ni muomila (axborot almashuvi) jarayonining asosiy birligi so‘z birikmasidan o‘zining predikativligi va xabar intonatsiyasi bilan tafovut qiladi. Predikativlik haqida gapirganda gap tarkibida kesimning mavjudligini nazarda tutamiz. Boshqacha qilib aytganda, gap bu nutq muomila jarayoni uchun grammatik jiqatdan tashkil kilingan birlik bo‘lib, so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalaydi va tugal fikr shakl va mazmuniga ega bo‘ladi. Masalan:

این کیف معلم است *In kif-e moallemast. “Bu o‘qituvchining portfeli”.*

این رود به دریای خزر میریزد *In rud be daryā-ye xazar mirizad. “Bu daryo Kaspiy dengiziga quyiladi”.*

So‘z birikmasi gap uchun “qurilish” materiali bo‘lib, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning ma`no va grammatik jiqatdan birikishidan tashkil topadi. so‘z birikmasi predmet, qodisa va voqelikka bo‘lgan munosabatlarning murakkab, ya`ni kengaytirilgan nomlanishidir. Masalan:

این رود *kif-e moallem* “o‘qituvchining portfeli”, *in rud* “*bu daryo*”; دریای خزر *Kaspiy dengizi*;

#### **Gap bo‘laklarining birikish usullari**

So‘z birikmalari tahlili natijasida biz fors tilida so‘zlarning quyidagi grammatik vositalar yordamida birikish usullari mavjur ekanligini aniqlagan edik

- 1) *izofa va izofiy birikish;*
- 2) *bitishuv va so‘z tartibi;*
- 3) *old ko ‘makchi va old ko ‘makchi yordamida birikish;*
- 4) *egalik qo ‘shimchalari va ularning biriktirish xususiyatlari.*

Xuddi ana shu usullar gap tarkibida ham ko‘rinadi. Ammo albatta qayd etish lozimki, gap tarkibida ular “boyroq” va kengroq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, gap tarkibida so‘z birikmasi tarkibi uchun “yot” bo‘lgan yangi birikish va biriktirish faktorlari ham paydo bo‘ladi. Bu faktorlarga quyidagilar kiradi:

1. **Intonatsiya.** Intonatsyaning roli gap tarkibida, ayniqsa, og‘zaki nutq jarayonida juda katta. Masalan, “Men Tehronga ketyapman” degan gapni Tehron laqjasida quyidagi usullarda aytish mumkin:

من میرم تهران میرم *Man Tehrān miram* = من تهران میرم *Tehrān miram man*

بے *be* old ko‘makchisining tushib holganligi, so‘z tartibining o‘zgarishi gap bo‘laklarining birikishga deyarli ta`sir o‘tkazmaydi. So‘zlarning birikishi bu holatda intonatsiya yordamida ta`minlanadi.

Intonatsiya haqida gapirganda gapning ritmik jiqatdan bo‘linishi va uning tarkibidagi urg‘u masalasiga ham to‘xtalishimiz lozim. Masalan, این نوکرshan بود *In noukarešān bud* gapi tarkibida ikkita ritmik guruh mavjud: این noukarešān bud “Bu ularning xizmatkori edi” بود - این *Bu tarkibda in - ega, noukarešān bud* - kesim.

Ammo qizig‘i shundaki, mazkur jumlani boshqacha, bir butun ritmik guruhga biriktirib talaffuz qilish ham mumkin:

این نوکرshan بود *Innoukarešān bud*  
“Bu xizmatkor ularniki edi”  
Bu tarkibda این noukarešān - ega, بود *bud* - kesim.

Intonatsiya tilning prosodik (talaffuz) elementlariga kiradi. U quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

- a) ovozning ko‘tarilishi yoki pasayishi;
- b) kuchli va kuchsiz, cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlarning ketma-ketligi.

Birinchi ritmik guruhlanishda oqang, melodika katta rol o‘ynaydi: avval *in* so‘zining kuchli va yuqori toni, keyin pauza va oxirida kesim tarkibidagi so‘nggi so‘z tomonga pasayib boruvchi ton. Bundan tashqari, این *in* (ega) kuchli urg‘u ham oladi (mantiqiy ajratish). Ritm jumla tarkibida ikki guruhni tashkil etdi, pauza esa ritmik guruhlash vositasi bo‘lib xizmat qildi. Xulosa qilsak, mazkur vositalar munosabatlarini ta`minladi va ifoda etdi.

سعید مسیب با آقامیرزا تو دا لان ایستاده گفتگو

مикрднд Said Mosib bā Āyāmirza tudālān istāde goftegu mikardand. “Said Mo’sib bilan Og’omirzo yo ‘lakda turib gapplash ishardi”.

Yuqoridagi jumla tarkibida ham intonasjon manzaraning ikki varianti yuzaga keltirilishi mumkin:

a) ایستاده istāde so‘zini oldingi ritmik guruxga biriktirish va undan so‘ng pauza berish:

سعید مسیب با آقامیرزا تو دا لان ایستاده، گفتگو  
Said Mo’sib bā Āyāmirza tudālān istāde, goftegu mikardand.

Bunday ritmik guruhanishda istāde so‘zi gap tarkibidagi uyushgan kesimni ifodalaydi:

Said Mo’sib bilan Og’omirzo yo ‘lakda turishar va gaplashishardi.

b) ایستاده istāde so‘zini گفتگو مикрднд goftegu mikardand, ya’ni kesimga biriktirish, pauzani esa dālān so‘zidan keyin qo‘yish:

سعید مسیب با آقامیرزا تو دا لان، ایستاده گفتگو  
Said Mo’sib bā Āyāmirza tudālān, istāde goftegu mikardand.

Ritmik guruhanishning bu holatida esa istāde so‘zi ravishdosh shaklida ishlatilib kesimdan anglashilayotgan ish-harakatning qay usul va tarzda bajarilishni izoqlaydi:

Said Mo’sib bilan Og’omirzo yo ‘lakda turib gaplashishardi.

Yuqoridagi fikr va misollardan ko‘rinib turibdiki, intonasjon vositalar gap tarkibida juda muhim ahamiyat kaso‘z birikmasi etadi.

2. Intonatsiyadan tashqari, gap tashkil qilish uchun moslashuv deb nomlanuvchi birikish usuli ham xarakterlidir. Hozirgi zamon fors tilida **moslashuv** usuli so‘z birikmalari tashkil qilish uchun ishlatilmaydi<sup>1</sup>. Aksincha, ya’ni gap tashkil qilish jarayonlarida esa moslashuv hukmron usuldir, chunki gapning bosh bo‘laklari - ega va kesim o‘rtasidagi munosabatlar fayat moslashuv orqali ifodalanadi:

من کتاب میخوانم *Man ketāb mixānam* - “Men kitob o‘qiyapman”

میخواهم کار کنم *Mihāham kār konam* - “Ishlamoqchiman”

دارم میروم *Dāram miravam* - “Ketyapman (ketib turibman)”

Yuqorida aytiganidek, so‘z birikmasi tashkil qilishda ishlatiladigan birikish usullarining ba’zilari gap tarkibida boyroq, serqirraroq va sermazmunroq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Zikr etilgan usullar qatoriga bog‘lash, old ko‘makchili birikuv, bitishuv va appozisiyalarni kiritish mumkin:

**1. Bog‘lash**, ya’ni bog‘lovchili birikish va sanash intonatsiyasi yordamida

<sup>1</sup>Fors-tojik klassik adabiyoti tilida ba’zan sifatlar tomonidan son kategoriyasining namoyon qilinishini ham kuzatish mumkin, ya’ni aniqlovchi aniqlanmish bilan sonda moslash adi:

حوران مردمان *mardomān-e piyādegān* “piyoda kishilar”; پیادگان  
چشمان سیاھ *hurān-e siyāhčeşmān* “qora ko‘z hurlar” .

birikish sodda so‘z birikmasiga xos emas, ammo so‘z birikmasi sintaksisi kursidan bilamizki, bu usulga xos vositalar bir bosh so‘z va bir necha ergash (tobe) so‘zlardan iborat murakkab so‘z birikmasi tarkibida, shuningdek, so‘z birikmasilarini bir-biriga bog‘lash uchun ham ishlatiladi. Gap tarkibida esa bog‘lash juda keng ishlatiladi.

Gap tarkibida so‘z birikmasi tarkibi uchun umuman begona bo‘lgan bog‘lovchili birikuv turlari ham ishlatiladi. Masalan, uyushiq bo‘laklarni biriktiruvchi *nafayat... balke* - “*nafayat... balki*”, چه... بلکه ... *ce* - “*ham... ham*” kabi murakkab bog‘lovchilari yoki *ya’ni* - “*ya’ni*” izohlovchi bog‘lovchisining ishlatilishi qiyoslang:

ما نفقط در راه عدالت بلکه همچنین در راه علم پیکار مینمایيم *Mā nafayat dar rāh-e adālat balke hamčenin dar rāh-e elm peykār minamāim.* “*Biz nafaqatadolat uchun, balki ilm uchun ham kurashyapmiz*”.

بشر با دشمن وحشتناک زراعت يعني ملخ مواجب شد *Bašar bā došman-e vahšatnāk-e zerā’at, ya’ni malax movājeb šod.*

“*Insoniyat dehqonchilikning dahshatli dushmani, ya’ni chigirtka bilan to‘qnash keldi*”.

2. **Bitishuv** usuli ham gap tarkibida o‘ziga xoslikka ega. Gap tarkibida nafayat sobit, ya’ni kontakt ko‘rinishidagi bitishuv, balki erkin, ya’ni distant ko‘rinishidagi bitishuv ko‘rinishlari ham ishlatiladi. Masalan, ما باید فرا بگیریم *Mā bāyad farā begirim* - “*Biz o‘rganishimiz kerak*” so‘z birikmasi gap tarkibida erkin, ya’ni distant holatda ishlatilishi mumkin.

باید از این حوادث درس های بسیار عمیق fra  
بگیریم *Bāyad az in havādes darshā-ye besyār amiy farā begirim*

از این حوادث باید درس های بسیار عمیق fra بگیریم *Az in havādes bāyad darshā-ye besyār amiy farā begirim.*

“*Bu hodisalardan juda chuqur o‘gitlar olishimiz kerak*”.

Old ko‘makchilarining ko‘pincha holatlarda tushirib qoldirilishi va intonasion vositalalarining ishlatilishi ham gap tarkibida bitishuv usuli mavqeini mustahkamlaydi:

تهران میروم به تهران *Tehrān miravam* = میرام *Tehrān miravam*. “*Tehronga ketyapman*”

در خانه بودم *dar xāne budam* = خانه بودم *xāne budam*. “*Uyda edim*”

3. **Appozisiya** - gap bo‘laklari orasidagi munosabatlarning alohida turi. Appozisiya gap tarkibida modal so‘zlar va gapning boshqa bo‘laklari o‘rtasida yuzaga keladigan modallik munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Appozisiyadagi so‘zlar gapning muayyan bir bo‘laklari bilan birikmaydi, balki butun gap tarkibiga tegishli bo‘ladi. Masalan, متسافانه *mota’assefāne* “*afsuski*” modal so‘zi quyidagi jumlada turli o‘rnlarga quyilish mumkin (*xish* so‘zidan keyin ham, *mo* so‘zidan keyin ham):

متاسفانه بعضى از نويىندگان ما با زندگى واقعى خواندگان خويش آشنا نىستند Mota'assefāne ba'zi az navisandegān-e mā bā zendegi-ye vāye'i-ye xānandegān-e xish āšnā nistand. “Afsuski, bizning ba'zi yozuvchilarimiz o'z o'quvchilarining haqiqiy hayotlaridan bexabarlar”.

بعضى از نويىندگان ما با زندگى واقعى خواندگان خويش متاسفانه آشنا نىستند Ba'zi az navisandegān-e mā bā zendegi-ye vāye'i-ye xānandegān-e xish mo'ta'assefāne āšnā nistand. “Bizning ba'zi yozuvchilarimiz o'z o'quvchilarining haqiqiy hayotlaridan, afsuski, bexabarlar”.

راستى *Rāsti* “aytgandek”, “to'g'risini aytganda” modal so'zi odatda jumlaning avvalida joylashadi, ammo u ham appozisiya yordamida jumlaning butun tarkibi bilan bog'lanadi:

راستى با يكديگر خوب آشنا نىستيم Rāsti bā yekdigar xub āšnā nistim. “Rostini aytganda, biz bir-birimizni yaxshi tanimaymiz”.

Shunday qilib, fors tilida jumlalar tarkibida ishlatiladigan sintaktik birikish usullarining turlari so'z birikmalarida ishlatiluvchi usullardan ancha ko'p. Buni quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin:

So'z birikmasi tarkibidagi birikish usullari	Gap tarkibidagi birikish usullari
1. izofiy birikish	1. izofiy birikish
2. bitishuv	2. bitishuv
3. old ko 'makchili birikish	3. old ko 'makchili birikish
4. egalik qo 'shimchasi yordamida birikish	4. egalik qo 'shimchasi yordamida birikish
5. bog 'lovchili birikish	5. bog 'lovchili birikish
	6. moslashuv
	7. intonatsiya
	8. appozisiya

### Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. So'z birikmasi gapdan nimasi bilan farq qiladi?
2. So'z birikmasi tarkibida qaysi sintaktik birikish usullari ishlatiladi?
3. Gap tarkibida qaysi sintaktik birikish usullari ishlatiladi?
4. Intonatsiya va urg'u gap tarkibida qanday ro'l o'ynaydi? Misollar keltiring.
5. Moslashuv nima? Gapning qaysi bo'laklari moslash adi?
6. Bog 'lovchili birikuv nima?
7. Gap tarkibidagi bitishuv qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
8. Appozisiya nima va uning gap tarkibida roli qanday?
9. Fors tili sintaksisi bo'yicha monografiya muallifi kim?

## ***Ikkinchı mavzu***

### **Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarni farqlash masalasi**

- 1.Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarni ajratish mezonlari.**
- 2. Shaxssiz gaplar**
- 3. Gap turini aniqlash usullari.**

#### **Tayanch so‘z va iboralar:**

*Bir bosh bo‘lakli gap, ikki bosh bo‘lakli gap, to‘liq sub’ektli - konkret egali ikki bosh bo‘lakli gap, to‘liq sub’ektli - mavhum egali ikki bosh bo‘lakli gap, noto‘liq sub’ektli aniq egali ikki bosh bo‘lakli gap, noto‘liq sub’ektli mavhum egali ikki bosh bo‘lakli gap, shaxssiz gap, predikativlik, ot kesim, fe’l kesim, fe’liy-ismiy kesim, ravish-yuklamali kesim, darak gap, so‘roq gap, undov gap, yig‘iq gap, yoyiq gap.*

### **Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarni ajratish mezonlari**

Fors tilidagi jumlalarning aksariyati ikki bosh bo‘lakli, ya`ni ularning tarkibida har ikkala bosh bo‘lak, ya`ni, ega va kesim mavjud bo‘ladi. Ayni holda jumla tarkibida eganing aloqida leksik vosita bilan ifodalangan yoki ifodalanmagani bunday gaplarda unchalik tarkibiy ahamiyatga ega emas. Eganing shaklan aloqida ifodalanmagani esa gapni bir bosh bo‘lakli deb tan olinishiga asos bo‘la olmaydi.

Ikki bosh bo‘lakli gaplarning to‘rt turi mavjud. Ular bir-biridan sub’ekt-eganing to‘liq yoki noto‘liq belgilanishi, shaxs yoki predmetning qanday ifodalanishi jiqatlari bilan farqlanadi. Ayrim holatlarda shaxs yoki predmet konkret, aniq ifodalansa, boshqa holatlarda mavhum ifodalanadi.

Quyida ularning har biri bilan tanishamiz:

a) to‘liq sub’ektli, ega aniq ifodalangan ikki bosh bo‘lakli gap:

استاد تودار بود و رازپهنانکن *Ostād tudār bud va rāzpahnānakon.* “Rassom kamgap va ichimdagini top odam edi”.

b) to‘liq sub’ektli, ega mavhum ifodalangan ikki bosh bo‘lakli gap:

تو وقتیکه تماشا میکنى میبىنى كە ... *To vaytike tamāšā mikoni mibini ke ...* “Sen tamosha qilayotganida ko ‘rasanki...” (*ko ‘rasanki - umumlashgan shaxs ma’nosida*);

v) noto‘liq sub’ektli, ega aniq ifodalangan ikki bosh bo‘lakli gap:

تشريف بيا وريد منزل من *Tašrif biyāvarid manzel-e man*. “*Mening uyimga marhamat qiling*”;

g) *noto‘liq sub’ektli, ega mavhum ifodalangan ikki bosh bo‘lakli gap: ترا کجا فرستадه اند؟ Torā kojā ferestāde-and? “Seni qaerga jo ‘natishdi?”*

Ammo sodda gaplar tahlili jarayonida biz shunday holat bilan ham to‘qnash kelamizki, yuqorida keltirilgan tasnif mezonlari ham yordam bera olmay, gaplarni u yoki bu turga ajratish juda mushkullash adi. Mazkur holatlardan ba‘zilariga to‘xtalamiz:

صحبت شدن *sohbat bemiyān āmadan* va *sohbat šodan* murakkab (qo‘shma) fe’llar ishtirok etgan quyidagi jumlalar ko‘rib chiqilsa, bosh bo‘laklarning mavjudligiga shubha tug‘ilishi mumkin:

وقتیکه از غایبی صحبت میشود... *Vaytike az yāyebi sohbat mišavad...* “*Yo‘q odam haqida gaplashilgan paytda...*”

صحبت از بازنشسته کردن به میان آمد *Sohbat az bāznešaste kardan-e u be miyān āmad.* “*Uni nafaqaxo ‘rlikka o‘tkazish haqida so‘z yuritildi*”

در باره این صحبت طولانی نشده است *Dar bāre-ye in sohbat-e tulāni našode ast.* “*Bu haqda uzoq gaplashilmagan*”.

Bu holatlarda egani aniqlash juda mushkul, ya`ni:

- a) *sohbat so‘zi ega vazifasini bajaryaptimi?*
- b) *jumla tarkibida ega yo‘q, ya`ni gap shaxssiz va bir bosh bo‘laklimi?*

خنده ام *xande-am gereft* - “*kula boshladim*”; خنده ندارد *xande nadārad-* “*kulgili joyi yo‘q*”; عیب *eyb nadārad-* “*hech qisi(aybi) yo‘q*”; خطر *xatar dārad-* “*xatarli*” kabi birikmalarda ham savol tug‘iladi.

Mazkur jumlalar qaysi turga kiradi - bir bosh bo‘lakligami yoki ikki bosh bo‘lakliga?

Bundan tashqari, ikki bosh bo‘lakli gaplarni bir-biridan che garlashda qaysi mezon ishonchli mezon hisoblanadi?

Bunday mezon vazifasini turli xildagi predikativlik munosabatlari bajarishi mumkin. Har qanday gap, ma`lumki, “umumiyy” predikativlikka ega. Ammo ikki bosh bo‘lakli gap bir bosh bo‘lakli gapdan yana shunisi bilan farqlanadiki, uning tarkibida belgi egasi va belgi orasida ichki predikativlik munosabati mavjud. Masalan, خانه *Xāne bolandast* - “*Uy baland*” gapi so‘z va so‘z birikmasidan nafayat “umumiyy” predikativlikka egaligi bilan farqlanadi, balki uning tarkibidagi belgi egasi خانه *xāne*-“*uy*”ga grammatic jiqatdan *boland-* “*baland*” belgisi bog‘lab qo‘yligan va bu ot kesim tarkibida fe’liy bog‘lamaning ishlataligani bilan ta‘minlangan.

Mavhum shaxsli va umumlashgan shaxsli gaplarda ham xuddi shunday

“belgi egasi va belgi” orasidagi ichki predkativlik munosabati mavjud: belgi mavhum shaxsli sodda gapga bog‘lanadi va bu mazkur gaplarni ikki bosh bo‘lakli, aniqrog‘i, noto‘liq sub’ektli ikki bosh bo‘lakli gaplar tarkibiga kiritish imkonini beradi, chunki ularda ega aniq ifodalanmagan.

Bir bosh bo‘lakli gaplar esa “umumiy” predikativlikka ega bo‘lgan holda ana shunday “belgi egasi va belgi” munosabatlaridan mahrumdir.

حریق ! *Xariq!*- “Yong ‘in!” jumlesi حریق *xariq-*“yong ‘in” so‘zidan voqelik bilan bog‘langani va aloqida intonatsiyasi bilan farqlanadi. “Yong ‘in!” jumlasini qandaydir mavhum belgi (*sodir bo‘ldi, yuz berdi, alanga oldi .kabi belgilar*) egasi sifatida tushinish mumkin. Ammo bularning birortasi grammatik jixatdan tegishli vosita bilan ifodalanmaydi. Xulosa shuki, “belgi egasi - belgi” munosabati bu yerda yo‘q.

اید باید *Bāyad ejrā kard*-“*Ijro etish kerak*” shaxssiz jumlasida ham xuddi shu holat mavjud, ya’ni zikr etilgan munosabat yo‘q. Demak, bu gapni ham bir bosh bo‘lakli deb atash mumkin.

Bir bosh bo‘lakli gaplar tahlilida ham har bir holatda muayyan usulni qo‘llash lozim.

Bir bosh bo‘lakli gaplar orasida shaxssiz gaplarning turli xillari mavjud.

## Shaxssiz gaplar

Shaxssiz gaplar tarkibiga fayat bitta bosh bo‘lak ishtirok etgan gaplar kiradi. Bular quydagilar:

1. Bosh bo‘lak tarkibiga kiruvchi fe’llar:

a) shaxs birlik shaklida qo‘yilgan gaplar:

است سرد *Sardast* “*Sovuq*”.

است گرسنه *Gorosne-am ast* “*Qornim och*”.

است گرمеш *Garm-aš ast* “*U isib ketdi*”.

میآید خوشман *Xoš-emān miyāyad* “*Bizga yoqadi*”.

آورد بخت *Baxt-at āvard* “*Baxting (omading) keldi*”.

نمیبرد خواب *Xābam namibord* “*Uyqum kelmasdi*”.

میرود احتمال *Ehtemāl miravad* “*Ehtimol*”, “*Balki*”.

b) تو انسنن *bāyestan* “*kerak, shart bo‘lmoq*”, *tavānestan* “*qodir bo‘lmoq*” fe’llarining qotib holgan, o‘zgarmas shaxssiz shakllari, shuningdek, ularning leksik sinonimlaridan bilan qisqa infinitiv shakli juftligidan iborat gaplar:

باید گفت *Bāyad goft*. “*Aytish kerak*”;

نمیاید آمد *Nabāyad āmad*. “*Kelish kerak emas*”;

نمیتوان شníید *Mitavān šenid*. “*Eshitish mumkin*”;

نمیشود بحث کرد *Namišavad bahs kard*. “*Bahslashib bo‘lmaydi*”

## 2. So‘z-gaplar:

a) oddiy tasdiq yoki inkorni ifodalovchi gaplar: بىلى *bali* “ha”; خىر *xeyr* “yo‘q”; البتە *albatte* “albatta”;

b) xabarga emotsional baholash elementini kirituvchi gaplar: ! بە *Bah-bah!* “Ajoyib!”; و اى ! *Vāy-vāy!* “Eh!”; آفرىن ! *Ofarin!* “Ofarin!”;

v) biror ish-harakatga undov gaplar: ! هى *hey!* “Ha qani!”; شش *Shsh!* “Jim!”

3. Nomlovchi jumlalar. Bu guruhga ro‘znama va oynomalardagi maqolalar yoki alohida xabarlar sarlavhasi, ya`ni sarlavhalarning barchasi kiradi.

اظھارىيە نخست وزیر *Ezhāriye-ye noxost vazir.* “Bosh vazirning bildirgan fikrlari”

حرىق ! *Xariq!* “Yong‘in!”

4. Salomlashish, iltimos qilish, uzr so‘rash va shu kabi mazmunga ega gaplar:

سلام ! *Salām!* “Salom!”

بفرمایید ! *Befarmā'id!* “Marhamat!”

ببخشید ! *Bebaxšid* “Kechirasiz”.

## Gap turini aniqlash usullari

Endi sodda gap turlarini aniqlash usullariga o‘tamiz. Sodda gaplarni bir yoki ikki bosh bo‘lakli gaplarga ajratishdan tashqhari, ularning turlarini aniqlashning ham xilma-xil usullari mavjud. Sodda gaplarni quyidagi belgilar asosida ham guruhlash mumkin:

1. Kesimning ifodalanishiga ko‘ra quyidagi guruhlar mavjud:

a) ot kesimli sodda gaplar:

و پزشك است *U pezešk ast - “U vrach”.*

b) fe’l kesimli sodda gaplar:

آنها از تاشکند رفتند *Ānhā az Tāškand raftand “Ular Toshkentdan ketdilar”.*

v) fe’liy - ismiy kesimli sodda gaplar:

من او را دوست خود میدانم *Man u-rā dust-e xod midānam “Men uni o‘z do stim deb bilaman”.*

g) ravish - yuklamali kesimga ega sodda gaplar:

كلاهم كو ؟ *Kolāham ku? - “Bosh kiyimim qani?”*

2. Ifoda maqsadiga ko‘ra sodda gaplar darak, so‘roq va undov gaplarga guruhlanishi mumkin. Ular ham o‘z navbatida tasdiq yoki inkor ma`nosiga ega bo‘la

oladi:

باران میبارد *Bārān mibārad* - “Yomgir yog ‘yapti”.

او کى میайдى؟ *U key miyāyad* - “U qachon keladi?”

برو! *Borou!* “Bor!”

بگذار بخواند! *Begozār bexānad!* “Qo ‘y o ‘qisin!”

3. Ikkinchı darajali bo‘laklarning mavjud yoki mavjud emasligiga ko‘ra sodda gaplar yoyiq va yig‘iq gaplarga ajratiladi:

آنها رفتند *Ānhā raftand* - “Ular ketdilar”.

او در دانشگاه شش ساعت کار میکند *U dar dānešgāh šeš sāat kār mikonad*. “U universitetda olti soat ishlaydi”.

### Mustaqil ta‘lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Fors tili ikki bosh bo‘lakli gaplarning qanday turlari mavjud?*
2. *Qaysi turdagи gaplar to‘liq sub‘ektli ikki bosh bo‘lakli gaplarga kiradi?*
3. *Qaysi turdagи gaplar noto‘liq sub‘ektli ikki bosh bo‘lakli gaplarga kiradi?*
4. *Fors tili bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarni ajratish qanday holatlarda juda mushkul?*
5. *So ‘habat be miyon omad* - “*Gaplashildi*” *bir bosh bo‘lakli gapmi yoki ikki bosh bo‘lakli gapmi?*
6. *Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplarni bir-biridan ajratish uchun eng ishonchli mezon qaysi?*
7. *Fors tilida shaxssiz gaplarning qanday turlari bor?*
8. *So ‘z - gap nima?*
9. *Nomlovchi gap nima?*
10. *Boyad raft va Boyad beravam gaplarining qaysisi bir bosh bo‘lakli, qaysisi ikki bosh bo‘lakli?*
11. *Gap turini aniqlashning qanday tur va usullari mavjud?*

## ***Uchinchi mavzu***

### **Ega**

- 1. Ega va uning grammatik belgilari.**
- 2. Ismiy so‘z turkumlari yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan ega.**
- 3. Butunning bir qismi ma`nosini ifodalaydigan ega.**
- 4. To‘ldiruvchi vazifasidagi ega.**

#### **Tayanch so‘z va iboralar:**

*Ega, predmetlilik ma`nosi, grammatik belgi, moslashuv, otlashish (substantivatsiya), “butunning bir qismi” ma`nosidagi ega, to‘ldiruvchi vazifasidagi ega, vazifalarning o‘zaro bajarilishi*

#### **Ega va uning grammatik belgilari**

Ega ikki bosh bo‘lakli gap tarkibidagi fikr predmeti, ya`ni belgi egasini ifodalash uchun ixtisoslashtirilgan gap bo‘lagidir. U ismiy so‘z turkumlaridan biriga oid so‘z yoki otlashgan so‘zlar, frazeologik birlik yoki sintaktik guruh bilan ifodalanananadi. Ega gap tarkibidagi asosiy ikki bosh bo‘lakning biri bo‘lib, bosh bo‘laklarning ikkinchisi, ya`ni kesim bilan grammatik va ma`no jiqatlaridan o‘zaro mos keladi.

Belgi egasi bo‘lgan egaga har doim “predmetlik” grammatik ma`nosi xos bo‘ladi. Shu sababli, ega vazifasini aksariyat xollarda ot yoki olmosh, ya`ni predmet yoki shaxsni ifodalovchi so‘zlar bajaradi.

Boshqa so‘z turkumlariga tegishli so‘zlar esa ega vazifasini bajarish jarayonida “predmetga aylanish”, ya`ni otlashish bosqichini bosib o‘tadi.

Eganing grammatik belgilari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) kesim bilan moslash ishi;
- b) old ko‘makchilar va -ro ko‘makchisi bilan birika olmaslik ;
- v) asosan jumlaning avvalida joylashish.

Fors tilida gap tarkibida ega turli usullar bilan ifodalanish mumkin. Ularni ko‘rib chiqamiz.

#### ***Ismiy so‘z turkumlari yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan ega***

Eng avvalo ega ot yoki olmosh, ya`ni predmet va shaxs ma`nosini beruvchi so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin.

Masalan:

نوبت به نفر بعدى رسيد Noubat be nafar-e ba`di rasid. “*Navbat keyingi kishiga yetdi*”

آقاى صداقتپىشە تعظىمى كرد *Āyā-ye Sadāqatpiše ta'zimi kard.* “*Janob Sadoqatpesha egilib ta'zim qildi*”

از سر سفره گشنه پا مىشند *Hame az sar-e sofre gošne pā mišand.* “*Hamma och-nahor holda qo'l artib dasturxonan turadi*”.

Ot bilan ifodalangan egaga ko‘pincha egalik qo‘shimchalari ham qo‘shilgan bo‘ladi, masalan:

پسرم شاگرد است *Pesaram šägerdast - “O‘g‘lim o‘quvchi”.*

چىزى *čizi* va كسى *kasi* noaniqlik olmoshlari gap kesimi bo‘lishsiz shaklga ega bo‘lgan holatlarda qarama-qarshi ma`no kasb etadi (“*hech kim*”, “*hech narsa*”), qiyoslang:

كىسى اينجا هست? *Kasi injā hast?* - “*Bu erda biror kishi bormi?*”

كىسى اينجا نىست? *Kasi injā nist?* - “*Bu erda hech kim yo‘qmi?*”

Mazkur misollarda gapning bosh bo‘laklari orasidagi ikki tomonlama yaqin munosabatlar yaqqol ko‘rinib turibdi.

Ismiy bo‘lmagan so‘z turkumlari ham predmet ma`nosini ifodalagan holda, ya`ni otlashgan holda ega vazifasini bajarish mumkin. Bu holda “predmetga aylanish” (noto‘liq otlashish) ko‘plik shakli ko‘rsatkichi qo‘shilishi (ko‘pincha -ho, ba‘zan -on) va ega oldiga ko‘rsatish olmoshining qo‘yilish orqali amalga oshiriladi. Masalan:

این تفريبياً ها *In tayribanhā - “Bu taxminlar”.*

yoki ba‘zan otlashishning hech qanday “tashqi” ko‘rinishlari zohir bo‘lmaydi:

وقت استراحت ماست حالا *Hälā vayt-e esterāhat-e māst.* “Hozir bizning dam olish paytimiz”.

كجاي دنيا از اينجا برتر است؟ *Kojā-ye donyā az injā bartarast?* “*Dunyoning qaeri bu yerdan ustunroq (qulayroq)?*”

اما هاي شما بي اساس است *Ammāhā-ye šomā biasāsast.* “*Sizing ammolarингiz asossiz*”.

Ba‘zan ega vazifasini bajarayotgan miqdor sonlarning otlashishi kuzatiladi:

پنج و يك مىشود شش *Panj-o yek mišavad šeš* - “*Beshga bir olti bo‘ladi*”.

Tartib sonlar esa urg‘uli -i qo‘shimchasi bilan ishlatiladi:

اولى استاد بود، سومى هم من هستم، دومى كىيست؟ *Avvalı ostād bud, sevvomi ham man hastam, dovvomi kist?* “*Birinchisi rassom edi, uchinchisi men, unda ikkinchisi kim?*”

Sifatlar ham, sifatdoshlar ham ega vazifasini bajaradi. Buning yagona sharti - ularning to‘liq yoki qisman otlashishi:

سیر از حال گرسنه خبر ندارد *Sir az hāl-e gorosne xabar nadārad.* “*Qorni to‘qning qorni och bilan nima ishi bor*”.

از میان خشت های سالم شکسته ها و ترکخورده ها جدا میشود *Az miyān-e xeštā-ye sālem šekastehā va tarakxordehā jodā mišavad.* “*Butun g‘ishtlar ichidan singan va yorilganlari ajratiladi*”.

Qo‘yidagi to‘liq va qisman otlashgan sifatdosh shakllariga e’tibor bering:

a) كوفته *kufte* باران *bastani* “*muzqaymoq*”, *bārān* “*yomg‘ir*”, *teftel*”;

b) فراموشندى *farāmušnašodanihā* ها *esdan chiqmaydigan narsalar*.

### “Butunning bir qismi” ma`nosini ifodalaydigan ega

Bu turdagi ega ot va *az old ko‘makchisi birikmasi bilan ifodalanadi* va ot aksaran ko‘plik shakliga ega bo‘ladi yoki ko‘plik ma`nosini bildiruvchi so‘zlar bilan aniqlanadi. Bunday birikmalar muayyan holatlarda biror miqdor bo‘lagi ma`nosini ifodalaydi.

در این کوچه از همه قبیل آدمی زندگی میکردند *Dar in kuče az hame yabil ādami zendegi mikardand.* “*Bu ko‘chada har toifadagi odamlardan bor edi*”.

### To‘ldiruvchi vazifasidagi ega va gap bo‘laklarining o‘zaro vazifalar bajarishi

Mazkur turdagи ega ergash gapli qo‘shma gaplarning bosh gapi tarkibida uchrab turadi.

Odatda bunday holatlarda ergash gap tarkibidagi olmosh bilan ifodalangan to‘ldiruvchi tushib holadi va bosh gapning egasi bir vaytning o‘zida uning vazifasini ham o‘z zimmasiga oladi:

دو نفرى كە من مىشناختم قبل از من گرفتار شده بودند *Do nafari-rā ke man mišenāxtam yabl az man gereftār šode budand.* “*Men tanigan ikki kishi mendan oldin qamoqqa tushgan edilar*”.

Vazifalarning gap bo‘laklari tomonidan o‘zaro bajarilishi fors tili jumlalari tarkibida keng tarqalgan holatdir va bu ergash gapli qo‘shma gaplarning ichki qurilmasi moqiyatidan kelib chiqadi. Eron tilshunoslari, masalan M.Humoiy,

to‘ldiruvchi vazifasidagi eGANI مفعولی مبتدای *mobtadā-ye maf'uli* deb nomlaydilar.

### **Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar**

1. *Gapning qaysi bo‘lagi ega deb ataladi?*
2. *Ega qanday grammatik ma`noga ega?*
3. *So‘z turkumlaridan qaysilari ko‘proq ega vazifasini bajaradi?*
4. *Fors tilida eganing qanday grammatik belgilari mavjud?*
5. *So‘z turkumlarining qaysilari otlashib ega vazifasini bajara oladi?*
6. *Čizi va kasi so‘zlari ega vazifasida qanday ma`nolarga ega bo‘ladi?*
  7. “*Butunning bir qismi*” ma`nosidagi ega atamasi qanday bo‘lakka niso‘z birikmasiatan ishlatiladi?
  8. To‘ldiruvchi vazifasidagi ega atamasi eganing qanday turiga niso‘z birikmasiatan ishlatiladi?
9. *To‘ldiruvchi vazifasidagi ega fors tilida qanday nomlanadi?*
10. *Fors tilidagi eganing turlari qaysi olimning monografiyasida tavsiflab berilgan?*

## **To‘rtinchi mavzu**

### **Ega (davomi)**

- 1. Infinitiv va infinitivli guruh bilan ifodalangan eganing hususiyatlari.**
- 2. So‘z birikmasi bilan ifodalangan ega**

#### **Tayanch so‘z va iboralar:**

*Infinitiv, sodda fe'l, murakkab fe'l, frazeologik birlik, murakkab tarkibli atamalar, son va tarkibli birikma, olmoshli birikma, har va qich olmoshlari, sifatning orttirma darajasi*

#### **Infinitiv va infinitivli guruh bilan ifodalangan ega**

Ma`lumki, fors tilida fe'lning infinitiv (noaniq) shakli ham fe'lga va ham otga xos hususiyatlarni namoyon qila oladi: آمدن āmadan - “kelmoq” va “kelish”; سیگار کشیدن sigār keşidan “čekmoq” va “čekish” va b.

Shu sababli infinitiv otlashish (substantivatsiya) qodisasiga uchramay ham ega vazifasini bemalol bajara oladi. Masalan:

آمدنش غیر منظره بود Āmadanaš γeyr-e montazere bud.  
“Uning kelishi kutilmagan edi”.

Murakkab fe'l (frazeologik birlik) tomonidan ega vazifasining bajarilishi ham keng tarqalgan qodisa. Umuman olganda, fors tilidagi fe'llar tarkibiy turlarining barchasi mazkur vazifani biror-bir cheklanishsiz bajara oladi. Masalan:

چه آسانست اینجور فکر کردن Če āsānast injur fekr kardan.  
“Bunday fikr qilish qanchalar oson”.

Ba`zan murakkab fe'l infinitivi tarkibiy qismlarining o‘rin almashishi yoki ular asosida ramkali qurilmalar tashkil qilinishi, ya`ni ismiy qism bilan yordamchi fe'l orasiga to‘ldiruvchilarning kiritilishi holatlari ham kuzatiladi:

آن وقت چه آسان بود گرفتن انتقام صغرا Ānvayt če āsān bud gereftan-e enteqām-e Soyrā. “O’sha paytda So‘g’roning qasdini olish qanchalik oson edi” (gereftan-e enteqām-e-“ega”).

Fe'lning infinitivi so‘z birikmasining bosh so‘zi (o‘zak so‘zi) bo‘lishi mumkin:

شニیدن آواز دهل šenidan-e āvāz-e dohol “nog‘ora ovozini eshitish”.

Mazkur birikma tarkibida so‘zlar o‘rin almashishi ham mumkin:

آواز دهل شニیدن āvāz-e dohol šenidan- “nog‘ora ovozini eshitish”.

Qiyoslang:

شニیدن آواز دهل از دور خوش است Šenidan-e āvāz-e dohol az dur xušast  
“Nog‘ora ovozini uzoqdan eshitish yoqimli”.

Birinchi va ikkinchi so‘z birikmaları orasıda farq shundaki, infinitiv so‘z birikması oxirida turgan holatda jarayon va fe’llik ma`nosı ko‘proq saqlanıb holadi. Birinchi birikmada infinitiv ko‘proq otlik hususiyatga ega.

Xuddi shunday holat quyida ham kuzatıldı:

انگشت به دهن گرفتن gereftan-e angošt bedahān; دهن گرفتن angošt bedahān gereftan - “pushaymon, nadomat qilish”.

Yuqoridagi jumlada ega - شنیدن šenidan, kesim - خوش xušast va qogan so‘zlar ikkinchi darajali bo‘laklar.

Ega vazifasını fe’liy frazeologik birikmalar ham bajara oladi. Masalan:

مهر سکوت بر لب گذاشتن خوب نیست Mohr-e sokut bar lab gozāshstan xub nist.

“Sukut saqlash yaxshi emas”.

### So‘z birikması bilan ifodalangan ega

Turg‘un (buzilmas) so‘z birikmalarining ba’zi turları ham gap bo‘laklarından biri vazifasını bajarishi mumkin. Fors tilida gapdagi ega vazifasi turg‘un so‘z birikmalarining quyidagi turları tomonidan bajarilishi kuzatıldı:

1) Murakkab tushuncha ifodalovchi frazeologik so‘z birikmaları:

a) turli tarkibli idioma-iboralar: دروغ شاخدار doruy-e šāxdār “g‘irt yolg‘on”; خرمگس معركه xarmagas-e ma`rake-“jonga tegadigan (shilqim) odam” va b.

b) atama xarakteridagi murakkab nomlar: خاور دور Xāvar-e dur-“Uzoq Sharq” شورای امنیت Šorāye amniyat - “Havfsizlik kengaşı”, اطاق بازارگانی otāy-e bāzārgāni-“savdo uyi”; ابر مثنویي abr-e masnui “tutunli g’ov” va b.

2) numerativ ishlatilgan yoki ishlatilmagan "son+ot" ko‘rinishidagi birikmalar:

یك دسته do adad bādbezan “ikkita ventilator”; دو عدد بادبزن šomāri az dāneşjuyān “talabalardan bir nechiasi”; قریب تو هزار کارگر yarib-e do hezār kārgar “ikki mingga yaqin ishchi”; پنج لیتر آب panj litr āb “besh litr suv”.

Miqdor son o‘rniga inhame olmoshi ishlatilgan birikmalar:

اینهمه درد سر Inhame dard-e sar “bu hamma dardisar”.

3) “deyarli hech...” ma`nosini ifodalovchi kamtar so‘zi bilan

tuzilgan birikmalar:

کمتر کسی بे آن بر میخورد *Kamtar kasi be ān bar-mixorad*  
“Deyarli hech kim bunga duch kelmaydi”.

4) Turli tarkibli olmoshli va "olmosh+son" ko‘rinishidagi birikmalar:

ما همه مسلمانیم *Mā hame mosalmānim*. “Biz hammamiz musulmonmiz”.

اینها هیچ کدام اهمیت ندارد *Inhā hič kodām ahamiyati nadārad*.  
“Bularning hech qaysisining hech qanday ahamiyati yo‘q”. γ

5) *Har va hič olmoshlari qatnashgan birikmalar:*

هر دولتى که روی کار میاید *Har doulati ke ru-ye kār miyāyad...* “Hokimiyat tepasiga kelgan har qaysi davlat...”

هیچ بلایی سر او نیامده *Hič balā-i be sar-e u nayāmade*. “Unga hech balo urmagan”.

6) Sifatning orttirma darajasi va ko‘plik shaklidagi ot ishtirok etgan izofiy birikmalar:

سردترين ما هها *Sardtarin-e māhhā* “oylarning eng sovug‘i”;

اشد اتهامات *Ašadd-e ettehāmat* “ayblovlarning eng qattig‘i”

Qiyoslang:

سردترين ما هها در آنجا ماه ژانویه است *Sardtarin-e māhhā dar ānjā māh-e jānviyeast*. “U yerlarda oylarning eng sovug‘i yanvar oyi”.

## Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Fors tilida infinitiv qanday hususiyatlarni ega?*
2. *Infinitiv qanday so‘z birikmalarining bosh (o‘zak) so‘zi bo‘la oladi?*
3. *Ega vazifasidagi murakkab fe’l infinitivi tarkibida o‘rin almaš ishlar bo‘lishi mumkinmi?*
4. *Fe’liy frazeologik iboralar ega vazifasini bajara oladimi?*
5. *Murakkab tarkibli atamalar ega vazifasini bajara oladimi?*
6. *“son+ ot” tarkibli birikmalar ega vazifasini bajara oladimi?*
7. *Kamtar so‘zi ega vazifasida qanday ishlataladi?*
8. *Ega vazifasini bajarayotgan olmoshli va “olmosh+son” tarkibli birikmalarga misol keltiring.*
9. *Har va qich olmoshlari qatnashgan birikmalar ega vazifasini bajarishga misol keltiring.*
10. *Sifatning orttirma darajasi va otning ko‘plik shaklidan tashkil topgan izofiy birikma ega vazifasini bajarishiga misol keltiring.*

## ***Beshinchi mavzu***

### **Sodda fe'l-kesim**

- 1. Kesim va uning fors tilidagi tipologiyasi.**
- 2. Fe'l-kesim.**
- 3. Sodda fe'l-kesim.**

#### **Tayanch so'zlar va iboralar:**

*Kesim, kesim tipologiyasi, oddiy fe'l kesim, fe'lning sintetik shakli, fe'lning analitik shakli, mayjudlik fe'llari, malmus , frazeologik so'z birikmasi, murakkab fe'l*

#### **Kesim va uning fors tilidagi tipologiyasi**

Kesim - ikki bosh bo'lakli gap tarkibidagi asosiy bosh bo'lak hisoblanadi. Kesim gapning egasiga tobe bo'lib, fe'lning shaxs-son va zamon shakllaridan biri, frazeologik birliklar, fe'liy ismiy birikmalar va sintaktik guruhlar bilan ifodalanadi va gap tarkibidagi predikativlik munosabatlarini ifodalaydi.

Fors tiliga oid grammatik manbalarda kesim *masnad* yoki *gozāre* atamalari bilan nomlanadi. Fors tilidagi kesimning an'anaviy tipologiyasi uning ikki turni o'z ichiga oladi:

- 1) fe'liy kesim
- 2) ismiy kesim.

Ammo kesim turlarini maxsus o'rganib chiqish shuni ko'rsatadiki, fors tilidagi kesim tipologiyasi 5 turni o'z ichiga olishi ham mumkin:

- 1) fe'l-kesim
- 2) ismiy-kesim
- 3) fe'liy-ismiy kesim
- 4) ravish-undov kesim
- 5)predikativ turdag'i sintaktik guruh bilan ifodalangan kesim.

#### **Fe'l-kesim**

Fe'l-kesim 2 xil ko'rinishga ega bo'ladi:

- 1) oddiy fe'l-kesim: fe'l yoki frazeologik fe'liy so'z birikmasi shakli bilan ifodalanadi.

2) murakkab fe'l-kesim: sintaktik guruh bilan ifodalanadi.

Avval oddiy fe'l-kesimni ko'rib chiqamiz.

## Oddiy fe'l-kesim

Oddiy fe'l-kesimning ikki turi, ya'ni sintetik va analitik turlari mavjud.

### Fe'l-kesimning sintetik shakli

Fe'lning sintetik shakli mustaqil ravishda, ya'ni yordamchi vositalarsiz shaxs-son, zamon, mayl ma'nolarini ifodalaydi.

Fors tilida fe'lning aniq mayli juda ko'p ishlatiladigan quyidagi sintetik shakllarni o'z ichiga oladi::

- 1) hozirgi-kelasi zamon fe'li ( مضارع اخباری ) *mozāre'-e axbāri*)
- 2) aniq o'tgan zamon fe'li ( ماضی متلق ) *māzi-ye motlay*)
- 4 o'tgan zamon davom fe'li ( ماضی استمراری ) *māzi-ye estemrāri*)

Masalan, quyidagi jumlalarning kesimiga diqqat eting:

سلامتى شما رل مىخواهم ! خانم ! *Salāmati-ye šomā-rā mixāham*. “Xonim sizga sog'liq tilayman”.

چند روز از میان گذشت *Čand ruz az miyān gozašt*. “Oradan bir necha kun o'tdi”.

خاله عباس را در بغل میکشید *Xāle Abbās-rā dar bayal mikešid*. “Xola Abbosni bag'rīga bosardi”.

Ba'zan hozirgi-kelasi zamon fe'li ma'nosida می *mi-* old qo'shimchasi qo'shilмаган шакллар ham ishlatiladi.:

شاعر گوید *Šā'er guyad* - “Shoir aytyapti”.

Fe'lning mazkur shakllariga goho ish-harakatning bajarilishiga jadal takroriylik ma'nosini yuklovchi هی *hey* yuklamasi yoki همه اش *hame-aš* olmoshi qo'shiladi:

و هی زد و هی زد ...va *hey zad-o hey zad*. “va uraverdi, uraverdi”.

خواهش همه اش کار خانه را میکرد *Xāharāš hame-aš kār-e xāne-rā mikard*. “Uning opasi doimo uy ishlari bilan shug'ullanardi”.

کم خور هی خور *Kam xor hey xor* - “Kam ye, hamisha ye”.

وجه ( وجه امری ) *vajh-e amri* va shart-istak ( وجه التزامی ) *vajh-e eltezomi* mayli shakllarida ham kelishi mumkin:

چای بریزم *Čāy berizam?* - “Choy quyaymi?”

دخترت را بفرست سحراء *Doxtarat-rā beferest sahrā*. - “Qizingni sahroga jo 'nat”.

Mavjudlikni ifodalovchi *hast* “bor” yoki *nist* “yo‘q” va bog‘lamaning 3- shaxs birlik shakli *ast* (va boshqa shaxs-son shakllari) ba`zan sodda fe'l sifatida xam ishlatiladi:

آیا اینجا گلهای زیربرف هست؟ *“Ayā, injā gohāye zirbarf hast? Bu yerda boychechaklar bormi?”*

حالا او در تهران است *Hālā u dar Tehrān ast.* “*Xozir u Tehronda turibdi, yashayapti.*”

او در اصفهان بود *U dar Esfahān bud.* “*U Isfahonda bo‘ldi*”.

او در بازاره *U dar bāzāre.* “*U bozorda (turibdi)*”.

Bu jumlalar tarkibida *hast*, *nist* نیست (است) *ast* *shakllari* *ast* *bog‘lamasining o‘tgan zamon shakli bud* mustaqil ma`noli fe’llarga aylangan. Urg‘u oluvchi *hast* va urg‘u tushmaydigan *ast* *shakllari* bir-birining o‘rniga ishlatilishi mumkin. Lekin bunday almashuv jumlaning ma`nosini biroz o‘zgartiradi. Masalan: *Ketāb ru-ye miz ast*- “*Kitob stolning ustida turibdi*” jumlasida predmet (*kitob*)ning makonda joylashgan xolati ta`kidlanyapti, ya`ni bu jumla *Ketāb kojāst?* savoliga javob berishi mumkin.

Ammo *Ketāb ru-ye miz hast* jumlasida endi predmetning joylashgan o‘rni emas balki uning mavjudligi ta`kidlanmoqda:

“*Kitob stolning ustida bor*”

Hozirgi zamon fors tilida yordamchi fe'l sifatida ishlatiluvchi *fe’li lug‘aviy mustaqil ma`no kaso‘z birikmasi etishi ham mumkin*. Masalan quyidagi jumlalarni taqqoslang:

او دکтр شد (*bud*) - *U doktor bo‘ldi (edi)*.

همچنین طوفانى تمام سال نبوده و نمیشود *Hamčenin tufān-i tamām-e sāl nabude va namišavad.* “*Bunday bo‘ron yil davomi bo‘lmagan va bo‘lmaydi*”.

چه شد؟ *Če šod?* “*Nima bo‘ldi?*” *Hič či našod.* “*Hech narsa bo‘lmadi*”.

## Kesim - fe'lning analitik shakli

Fe'lning analitik shakli mustaqil fe'lning ma'lum bir shakliga yordamchi fe'l qo'shish orqali yasaladi. Boshqacha qilib aytganda, analitik shakllar tasviriy zamonlar shakllari hisoblanadi. Hozirgi zamon fors tilida fe'lning quyidagi analitik shakllari mavjud:

1)o‘tgan zamon natijali fe'li (*māzi-ye nayli*):

خوانده *xānde-am o‘qiganman*

- 2)uzoq o'tgan zamon fe'li (ماضى بعيد) *māzi-ye baid*):  
خوانده بودم *xānde budam o'qigan edim*
- 3)aniq kelasi zamon fe'li (مستقبل) *mostaybal*):  
خواند *xāham xānd "o'qiymān"*
- 4)hozirgi zamon aniq davom fe'li (مضاره ملموس) *mozāre-ye malmus*):  
دارم میخوانم *dāram mixānam - "o'qib turibman"*
- 5)o'tgan zamon aniq davom fe'li (ماضى ملموس) *māzi-ye malmus*):  
داشتمن میخوانم *dāštām mixāndam "o'qib turardim"*
- 6)o'tgan zamon shart istak mayli (ماضى التزامي) *māzi-ye eltezāmi*):  
خوانده باشم *xānde bāšam "o'qigan bo'lsam"*
- 7)majhul daraja (فعل مجهول) *fe'l-e majhul*):  
خوانده شد *xānde šod - "o'qildi"*

Analitik shakllarning jumla tarkibida ishlatilishiga diqqat qiling:

مهرى خانم همواره خود را آزار داده است *Mehri xānom hamvāre xod-rā āzār dāde ast.* “Mehri xonim har doim o'zini qiynagan”.  
نمیخواستم بفهمد من دارم در میروم *Nemixāstam befahmad man dāram dar miravam.* “Mening ketayotganimni bilib qolishini istamagan edim”.

O'tgan zamon natijali fe'lining kesim vazifasini bajarishi xaqida gapirganimizda, fe'lning shu shaklini omonim shakl - ot kesim shaklidan farqlashimiz lozim. Qiyoslang:

استکان را کی گرفته است؟ *Estekān-rā ki gerefte ast?* “Stakanni kim olgan?”

صد ایش گرفته است *Sedā-yaš gerefte ast.* “Ovozi bo'g'ilib qolgan”.

(birinchi gapda گرفته است - fe'l-kesim, ikkinchisida ot-kesim)

Agar kesim davomli analitik shakllar (ملموس) *malmus*) bilan ifodalangan bo'lsa, shuni qayd etish lozimki, mazkur holatda o'ziga xos sintaktik tuzilish, ya`ni tarkibiy qismlarning bir-biridan uzoqda turib ramkali qurilma qosil qilishi kuzatilishi mumkin:

داشت... دیوانه ام غم و غصه دیوانه ام میکرد *yam-u yosse dāšt divāne-am mikard.* “G'am-g'uṣṣa meni devona qilib qo'yay derdi” (دیوانه کردن - *dāšt..divāne-am mikard* - *divāne kardan* “devona qilmoq” fe'lining ماضى ملموس *mozīye malmus shakli*).

Xuddi shu jumlani xozirgi zamon aniq davom fe'li bilan ham tuzish mumkin:

میکند دارد دیوانه ام غم و غصه دیوانه ام میکند *yam-u yosse dārad divāne-am mikonad.* “G'am g'uṣṣa meni devona qilib qo'yay deyapti”.

Agar kesim aniq kelasi zamon fe'li shakliga ega bo'lsa, unga quyidagicha izoh berish lozim bo'ladi. Aniq kelasi zamon (مستقبل) *mostaybal*) shakli modal infinitiv birikmadan kelib chiqqan:

نوشتن *xāham navešt* < خواهم نوشتن *xāham naveštan* “men yozaman”  
(ikkinchi shakl klassik davr fors adabiyotida ishlatilgan).

Lekin aytish mumkinki, o’sha davrda ham, hozirgi kunda ham bu zamon shakli fe’lning analitik shakllaridan hisoblangan va hisoblanadi. خواهم *Xoham* shakli bu o'rinda “istak, mayl” ma’nosini ifodalamaydi, balki grammatik kesim kategoriyasini aks ettiradi:

آمد پیش ارباب نخواهی *Piš-e arbāb naxāhi āmad.* “Xo’jayinning oldiga kelmaysan”.

Kesim fe’lning majhul darajasi shakli bilan ifodalangan holatlarni, masalan:  
كتاب نوشتہ شد *Ketāb navešte šod.* “Kitob yozildi”.

او نویسنده شد *jumlasidagi šodan* fe’lining murakkab ismiy kesim: Unavisande شد *šod.* “U yozuvchi bo’ldi”.

yoki murakkab fe’l:

درس تمام شد *Dars tamām šod.* “Dars tamom bo’ldi.”

tarkiblarida ishlatilishi vaziyatlaridan farqlash lozim.

Majhul daraja shakli fayat o’timli fe’llardan (*afāl-e motaaddi*) yosaladi: گرفته شدن *xānde šodan* “o’qimoq”, گرفته شدن *gerefte šodan* “olinmoq”.

Majhul daraja shakli turg‘un grammatic shakl bo‘lib, uning tarkibidagi شدن *šodan* fe’lini unga ekvivalent bo‘lgan گردидن *gardidan* yoki گشتен *gaštan* fe’llari bilan almashtirish mumkin emas.

Bundan tashqari, ayrim xolatlarda kesim turini ajratish ma’lum darajada mushkul bo‘ladi, masalan:

پلو پخته شده است *Polou poxte šode ast.* “Osh pishirilgan”.

خطش پخته شده است *Xattaš poxte šode ast.* “Uning yozuvi yaxshi bo‘lib qolgan”.

Shuningdek, گرفته شده است *gerefte šode ast* “olingan” yoki “bo‘g‘ilib qolgan” va x.k.

## Fe’liy frazeologik so‘z birikmasi bilan ifodalangan kesim

نې ماھ من دندان روی جگر گذشتم و با سیلى روی خودم را سرخ نگه داشتم *Noh māh man dandān ruye jegar gozāshtam va bā sili ru-ye xodamrā sorx negah dāstam.* “To ‘qqiz oy toqat qildim va moddiy jihatdan qiynalganimni ko ‘rsatmaslikka harakat qildim”.

Mazkur jumladagi frazeologik so‘z birikmalari haqida gapirganda, ularning qatoriga murakkab (qo‘shma) fe’llar ham kirishini e’tiborga olish lozim: تبسم کردن *tabassom kardan* “kulmoq”, نیش زدن *niš zadan* “nish sanchimoq”, زحمت کشیدن *zahmat keşidan* “mehnat qilmoq” va b.

Tilshunos olimlarning fikricha, bunday birikmalarga nisbatan murakkab fe’l atamasini ishlatish unchalik to‘g’ri bo‘lmaydi, chunki ular murakkab so‘zlar bilan qiyoslana olmaydilar. Murakkab fe’l murakkab so‘z emas, balki so‘zga teng va bir butun ma`noni ifodalovchi frazeologik so‘z birikmasidir.

Sintaktik (erkin) va frazeologik (turg‘un) so‘z birikmalarining omonimiyasi holatlari xam kuzatilishi mumkin:

سبز شدن *sabz šodan* “ko ‘karmoq” va سبز شدن *sabz šodan* “paydo bo ‘lmoq”;

گرم شدن *garm šodan* “isimoq” va گرم شدن *garm šodan* “qizimoq (suhbat);

بالا کشیدن *bālā keşidan* “yuqoriga tortmoq” va بالا کشیدن *bālā keşidan* “o ‘zlashtirib olmoq”;

### Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Kesim deb qanday gap bo‘lagiga aytildi? U fors tilida qaysi atama bilan nomlanadi?*
2. *Hozirgi fors tilida kesimning qanday turlari mavjud?.*
3. *Fe’l kesimlarning turlari .*
4. *Oddiy fe’l kesimlarning turlari .*
5. *Sintetik fe’l shakllari.*
6. *Fe’lning analitik shakllari va ularning forscha atamalari.*
7. *hast, nist, ast shaklidagi mavjudlik fe’llari kesim vazifasini qanday bajaradi?*
8. *šodan fe’li kesim vazifasida qanday ishlatiladi?*
9. *Malmus atamasi fors tilida qanday shakllarni nomlaydi?*
10. *Murakkab fe’l va murakkab(qo‘sma) so‘zlar orasidagi tafovutlar .*

## **Oltinchi mavzu**

### **Murakkab fe'l-kesim**

- 1. Modifikatsiyalovchi fe'liy birikmadan iborat kesim.**
- 2. Modal maqsadli xarakterdagi fe'liy birikmadan iborat kesim.**
- 3. Yo'naliш-maqsadli xarakterdagi fe'liy birikmadan iborat kesim.**
- 4. Sub'ektiv infinitivli birikmadan iborat fe'l kesim.**

#### **Tayanch so'zlar va iboralar:**

*Murakkab kesim, modifikatsiyalovchi fe'l, modal fe'l, modal fe'llarning sinonimlari, harakat fe'li, ish-harakat boshlash fe'li, holat fe'li, sub'ektiv infinitivli birikmalar.*

#### **Modifikatsiyalovchi fe'liy birikmadan iborat kesim**

Modifikatsiyalovchi fe'l deb butun birikmaga qo'shimcha yo'naliш, harakat, ish harakatning kutilmagan holda bajarilishi kabi ma'nolarini yuklovchi fe'lga aytildi.

Bu qodisa tojik tili va uning laxjalarida keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda 40 ga yaqin modifikatsiyalovchi fe'l iste'molda. Fors tilida, shu jumladan Texron laqjasida bunday fe'llar juda kam uchraydi va ularning soni 2-3 tadan oshmaydi. Fors tilida ishlatiladigan modifikatsiyalovchi fe'llarga گرفتن *gereftan* "olmoq", رفتن *raftan* "bormoq", آمدن *āmadan* "kelmoq" fe'llarini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur fe'llarning aniq mayl shakllari jumla tarkibidagi asosiy fe'lning tegishli zamon, shaxs son shakli bilan moslash gan xolda ishlatiladi:

پاى رودخانه گرفت نشست *Pā-ye rūdxāne gereft nešast*. "U daryo qirg'og'iga (birdan) o'tirib oldi".

بېگىر بخواب *Begir bexāb*. "Bor uxla".

تمام شد رفت *Tamām šod raft*. "Tamom bo'ldi, tugadi".

آمديم آمدیم *Āmadim harfetān dorust ast*. "Qo'yingchi, (balki) so'zlarinez to 'g'ridir".

#### **Modal maqsadli xarakterdagi fe'liy birikmadan iborat kesim**

Bunday birikmalar ikki (ba'zan uch) fe'lidan tarkib topadi. Birikmadagi birinchi fe'l eganing biror harakatni bajarishga bo'lgan intilishi, moyilligini, ikkinchi fe'l esa (ba'zan ikkinchi va uchinchi fe'l birgalikda) o'sha ish-harakatning

o‘zini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bunday kesim modal fe’l bilan asosiy fe’lning birikuvidan xosil bo‘ladigan kesim turidir.

او میتواند کар кнд *U mitavānad kār konad*. “*U ishlay oladi*” (*imkoniyat*).)

او میخواهد کار кнд *U mixāhad kār konad*. “*U ishlarraqchi*” (*intilish, moyillik*).

او بайді кар кнд *U bāyad kār konad*. *U ishlashi kerak*” (*zarurat*).

او موظف است کар кнд *U movazzaf ast kār konad*. “*U ishlashga majbur(ishlashi shart)*” (*shart, majburiyat*).

Bunday birikmalar gap tarkibida bir butunlikda qatnashib kesim vazifasini bajaradi. Modallik ma`nolarini ifodalovchi fe’llarning sinonimlari xam mavjud va ular tegishli ma`no qirralarini ifodalaydi:

بلد بودن - *tavānestan* تو انسن *balad budan* “*bilmoq, qila olmoq*”: فرصت بودن *forsat kardan* *qila olmoq*; ققدر بودن *topmoq*;

علقمند بودن - *xāstan* خواستن *alāyemand budan* “*moyil bo lmoq*”; در سدد بودن *raybat kardan* *istamoq*”; در رغبت کردن *dar sadad budan* “*niyati bo lmoq*”;

Og‘zaki til jarayonlarida bir harakat fe’lining ikki yoki undan ortiq aorist shakllarini boshqarayotgan holatlari xam kuzatiladi:

اومده بودم اکبرو اینجا بذارم و برم *Umade budam Akbar-u injā bezāram-o beram*. “*Bu yerga Akbarni qo'yib ketish uchun kelgan edim*”.

Fors tilida modal maqsadli yo‘nalishga ega murakkab kesimlar bilan bog‘liq yana bir muammo mavjud. Bu muammo fors tilida sodda va qo‘shma gaplarning qali bir-biridan aniq ajratilmagani bilan ham bog‘liq. Gap quyidagi turdagи jumlalar xaqida ketayapti:

میخواهم در این روزها به تهران بروم *Mixāham dar in ruzhā be Tehrān beravam*. “*Shu kunlarda Tehronga bormoqchiman (borishni xohlayman)*”.

میخواهم کе او در این روزها به تهران بروд *Mixāham-ke u dar in ruzhā be Tehrān beravad*. “*Shu kunlari u Tehronga borishini istayman(istayman... borsin)*”.

Yuqoridagi jumlalar misolida biz qanday xulosa chiqarishimiz lozim?

a) میخواهم *mixāham...beravam* murakkab kesimli sodda gapmi?

b) میخواهم *mixāham* va برود *beravad* shakllarining o‘zi bosh va ergash gaplarning mustaqil kesimimi?

Bu masalani hal etish uchun har ikkala tarkibiy qismlarning gap egasi bilan shaxs sonda moslashuviga qarashimiz lozim. Agar har ikki qism ega bilan to‘liq moslashuvga ega bo‘lsa, bu holda murakkab kesim va sodda gap haqida so‘z yuritishimiz kerak.

Agar bunday moslashuv bo‘lmasa qarshimizda murakkab gap turgan bo‘ladi. Keltirilgan mezonga asoslanib aytish mumkinki, birinchi misolda murakkab kesimli sodda gap, ikkinchi misolda esa to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap keltirilgan. Lekin bahsli holatlar ham kuzatilib turadi.

Endi modal fe’llarning uchinchisi, ya’ni *bāyestan* “*zarur, shart bo‘lmoq*” fe’li haqida so‘z yuritsak. Mazkur fe’lning sinonimlariga diqqat qiling:

بایستان مجبور بودن - *bāyestan* - *majbur budan* “*majbur bo‘lmoq*”; وادار شدن *movazzaf budan* “*majburiyatga ega bo‘lmoq*”; *vādār şodan* “*majbur bo‘lmoq*.”

باید *bāyestan* fe’lining to‘rt shakli ko‘p ishlataladi: *bāyad*, میبايستى *mibāyesti*, میبايست *mibāyest*.

Modal fe’llardan keyin turuvchi asosiy fe’llar doimo aorist shaklida ishlataladi. Bundan farqli ravishda *bāyad*, *bāyesti* shakllari asosiy fe’lning o‘tgan zamon davom fe’li shakli bilan ham birga ishlatila oladi:

میبايستى *bāyad mirafti* - *borishing kerak edi* birikmasi  
بروی *mibāyesti beravi* birikmasi bilan to‘liq teng mazmunga ega.

Og‘zaki tilda *bāyad* modal fe’lining ikkinchi asosiy ma`nosi, ya’ni gumon, extimol, sub’ektiv noaniq imkoniyat ma`nolari ham rivojlangan:

نمیدانم *Namidānam bāyad panjāh sāl dāste bāšad*. “*Bilmadim, 50 yoshga kirgan bo‘lsa kerak*”.

ممکن *Šāyad* شاید *bāyad* modal fe’li *Šāyad* va *momken ast* modal so‘zlarining sinonimi.

## Yo‘nalish-maqсадли xarakterdagи fe’l birikmasidan iborat kesim

Ba`zan makon sathidagi ish-harakat yoki holatni ifodalovchi fe’llar asosiy fe’lning aoristi bilan birikib yo‘nalish-maqсадли xarakterdagи kesim tashkil qiladi. Masalan, bular jumlasiga *raftan*, رفتن *āmadan*, آمدن *davidan*, برگشتن *bar-gaştan* va boshqa harakat fe’llari kiradi:

صاحب خانه دوید جاиш را نشان بد *Sāhebxāne david jāyaš-rā neşān bedehad*. “*Uy egasi unga joyini ko‘rsatish uchun chopib ketdi*”.

## Sub’ektiv infinitivli birikmadan iborat fe’l kesim

Hozirgi fors tilida sub'ektiv infinitiv shakli fayat ish-harakat boshlanishini ifodalovchi fe'llar bilan birga ishlataladi:

او بنا کرد لرزیدن و فریاد کردن *U benā kard larzidan va faryād kardan*. “*U qaltirash va dodlashga tushdi*”.

Ish-harakat boshlanishini ifodalovchi fe'llarga yana quyidagi fe'llarni kiritish mumkin: آغا ز کردن *āyāz*, گرفتن *gereftan*, شروع *šoru'* *kardan*, داشت *dašnat*, دادن *dādan*, گرفت *gerefst* va b.

ابری تولید شد و روی زمین باریدن گرفت *Abr-i toulid šod va ru-ye zamin boridan gereft*. “*Bulut paydo bo'ldi va yerga yomg'ir yog'ib berdi*”.

Bunday sub'ektiv infinitivli kesimlar fors tilida ancha keng tarqalgan:  
روییدن گرفت *ruyidan gereft* “*o'sa boshladi*”;  
داشتم دادن گرفت *dašnām dādan gereft* “*so'ka boshladi*”.

شروع کردن *šoru'* *kardan* fe'li bilan infinitivlarning ishlatalishi qat'iy emas, chunki uni turlicha qo'llash mumkin:

خواندن شروع کرد *xāndan* *šoru'* *kard xāndan* “*o'qishni boshladi*”;  
خواندن شروع به خواندن کرد *xāndan kard* *šoru'* *be xāndan kard* “*o'qishni boshladi*”;  
خواندن را شروع کرد *xāndanrā šoru'* *kard* “*o'qishni boshladi*”;  
شروع کرد به خواندن *šoru'* *kard be xāndan* “*o'qishni boshladi*”.

## Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Modifikatsiyalovchi fe'llar qatnashadigan murakkab kesimlarning turlari.*
2. *Modal-maqsadli xarakterdagи fe'lli birikmalar.*
3. *"Qila olmoq" ma`nosini beruvchi sinonimlar qatori.*
4. *"Istamoq" ma`nosini beruvchi sinonimlar qatori.*
5. *"Kerak bo'lmoq" ma`nosini beruvchi sinonimlar qatori.*
6. *"Bāyestan" fe'lining eng ko'p ishlatiluvchi shakllari.*
7. *"Bāyad" shaklining asosiy va qo'shimcha ma'nolari.*
8. *Yo'naliш-maqsad xarakteridagi fe'lli birikmalar.*
9. *"šoru' kardan" fe'li qanday ishlataladi?*
10. *Sub'ektiv infinitivli fe'liy birikmalar.*

## ***Yettinchi mavzu***

### **Ismiy kesim**

- 1. Ismiy kesimning umumiylar xarakteristikasi**
- 2. Bog'lama-fe'llar va ularning ekvivalentlari**
- 3. Predikativlarning turlari:**
  - a) predikativ-ot;**
  - b) predikativ-olmosh va son**

**Tayanch so‘zlar va iboralar:**

*Ismiy kesim, predikativ, bog'lama fe'l, ast/hast bog'lamasi, bog'lama vazifasi, old ko'makchili predikativlar*

### **Ismiy kesimning umumiylar xarakteristikasi**

Ismiy kesim atamasi predikativ va bog'lamadan tarkib topgan so‘zlar guruhini nomlaydi. Bunday guruhda predikativ asosiy ma`noni ifodalaydi, bog'lama esa eganing predikativ bilan moslash ishi va bog'lanishiga yordam beradi:

او خودш مисламан است، اما متعصب نист *U xodaš mosalmān ast, ammā motaasseb nist*

“*U o'zi musulmon, ammo mutaassib emas*”.

Fors tilida ismiy turkumlarga oid so‘zlar kesim vazifasini bog'lamasiz bajara olmaydi. Albatta bundan og'zaki va eqtirosli nutq jarayonlarida maqollar, matallar va iboralar tarkiblarida yo'l qo'yiladigan bog'lamaning qisharishi xolatlari mustasno:

کوزه نو آب خنک *Kuze nou āb xonak* “*ko'za yangi-suv muzdek*”.

Yuqoridagi maqol tarkibida است *ast* bog'lamasi ikki marta tushib qolgan va natijada maqolning ifodaliligi ancha kuchaygan.

Ismiy kesim fe'liy kesimdan eganing ismiy xususiyatlarini ifodalashi bilan farqlanadi. U (ismiy kesim) o'tgan zamon natijali fe'li, majxul daraja shakli va ba'zi bir boshqa fe'liy birikmalardan, avvallambor shunisi bilan farq qiladiki, bog'lama turli qil sinonimlar bilan almashtirilishi mumkin. Sanab o'tilgan fe'l kesimlar tarkibida esa bundaay almashtirishlarni amalgalashib bo'lmaydi:

او خили خوشбخت است *U xeyli xošbaxt ast* “*U juda xushbaxt*”.

jumlasida *ast* bog'lamasini *hast*, *mibāšad* so‘zlari bilan almashtirish mumkin va bu gap mazmuniga ta'sir qilmaydi.

Aksincha:

او خوانдех است *U xānde ast* “*U o'qigan*” jumlasidagi fe'l kesim

таркебини *Uxānde mibāšad* деб о‘згартирib bo‘lmaydi. او خوانде мибашад

## Bog‘lama-fe’llar va ularning ekvivalentlari

Fors tilida bog‘lama fe’llar таркебига фаят мавхум лексик ма`noli va предикативлар билан еркин бирекиб исмий кесимнинг турли шаклларини ташкіл қиласидан fe’llarni kiritish lozim. Bunday fe’llar таркебига *ast*/است hast bog‘lamalari va ularning qisqa shakllari, بودن *budan*, شدن *śodan* fe’llari kiradi.

Mazkur fe’llar guruhiга, shuningdek, quyidagi fe’l va fe’liy birikmалари ham o‘zlarining bog‘lama vazifasini bajara olish xususiyati bilan qo‘shilishi mumkin:

بے نظر رسیدن *māndan*, نمودن *namudan*, ماندن *be nazar rasidan*, به نسبت رفتن *nemud kardan*, نمود کردن *be šomār raftan*, به نسبت رفتن *be hesāb raftan*.

Yuqorida sanab o‘tilgan fe’llar том ма`noda bog‘lama деб аталиши mumkin emas, chunki ular bog‘lama fe’llardan o‘zlarining qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu xususiyatlar ichida eng asosiysi shuki, mazkur fe’llar konkret ма`noga ega va ular предикативлар билан фаят cheklangan hollardagina бирика oladi va ularning ishlatalish doirasi ham bog‘lamalarnikidan ancha tor. Masalan, نمودن *namudan* fe’li фаят ко‘риниши mumkin bo‘lgan предикативлар билан бирика oladi:

لقمه در دست دیگران بزرگ مینماید *Loyme dar dast-e digarān bozorg minamāyad*- “*Luqma boshqalarning qo‘lida katta ko‘rinadi*”

Yuqorida sanab o‘tilgan fe’llarning har бiri haqida mana shunday fikr bildirish mumkin.

## Predikativlarning turlari

Ismiy кесимнинг семантик ва таркебиyl markazi vazifasini predikativ bajaradi va eganing ismiy xususiyatlarini ifodalaydi. Predikativ vazifasini quyidagi so‘z түркум ва guruhlarga oid so‘zlar bajara oladi: ot, olmosh, son, sifat, sifatdosh ва fe’llarning infintitivlari.

### Predikativ - ot

آقا ما شا الله حاجي هستند، صيد هستند *Āyā māšāllāh xāji hastand*, seyyed hastand- “*Janob, xudoga shukrki xojilar, sayyidlar*”.

Bu gapda ikkita predikativ mavjud - *xāji* va *sayyed* so‘zlari. Agar predikativ o‘zining aniqlovchisiga ega bo‘lsa u odatda *yo-ye vahdad* qabul qiladi: اما لولمانى آدم دیگریست *Ammā Lulmāni ādam-e digarist*. “*Ammo Lulmoniy boshqa bir odam*”.

Ot bilan ifodalangan predikativning grammatik xususiyatlaridan yana biri shuki, u turli old ko‘makchilar, jumladan, در *dar*, باز *bā*, از *az*, به *be*, بدون *bedun-e*, برابر ای *barabarāye* old ko‘makchilar bilan birikib kelishi mumkin:

اوپا०ع در تغییر است *Ouzā' dar tayyirast* “*Vaziyat o‘zgaryapti*”. این روز از ایمان است *In nur az imān ast* “*Bu nur iymondan*”.

Ot bilan ifodalangan predikativli kesim tarkibiga يعنی *ya`ni* izoqlovchi bog‘lovchisi, مثل *mesl-e*, چون *čun* kabi old ko‘makchilar biriktirilishi ham mumkin:

بهشون خالى كردم كه وصول و ايصال يعني چه *Behešun xāli kardam ke vosul-o isol ya`ni če*. “*Men ularga olish va to‘lash nimaligini tushuntirib qo‘ydim*”

### Predikativ - olmosh va son

اولى استاد بود، دومى من هستم، سومى کيست؟ *Avvali ostād bud, dovvomi man hastam, sevvomi kist?*

“*Birinchisi rassom edi, ikkinchisi men. uchinchisi kim?*”

Bunday predikativ old ko‘makchi bilan ham birikib kelishi mumkin: حق با شماست *Hay bā šomāst* “*Siz haqsiz*”.

### Mustaqil ta‘lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Ismiy kesim* .
2. *Ismiy kesim tarkibiy qismlarining vazifalari*.
3. *Bog‘lamaning tushib holishi* .
4. *Ismiy kesimning fe’l-kesimdan farqlari*.
5. *Qanday fe’llarni bog‘lamalar qatoriga kiritish mumkin?*
6. *Qanday fe’llar bog‘lama vazifasini ham bajara oladi? Ularning bir biridan qanday farqi bor?*
7. *Predikativ* .
8. *Predikativ vazifasida qanday so‘zlar ishlatiladi?*
9. *Predikativ - otning ishlatilishi*.
10. *Predikativ - olmosh va son bilan ifodalangan holatlar*.

## **Sakkizinchi mavzu**

### **Ismiy predikativlar**

- 1. Predikativ – sifat**
- 2. Predikativ - sifatdosh**
- 3. Predikativ - fe'lning noaniq shakli**

#### **Tayanch so‘zlar va iboralar:**

*Boshharuvli munosabat, aniqlash munosabati, hozirgi zamon sifatdoshi, o‘tgan zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi, majburiyat sifatdoshi, arabiy sifatdoshlar, fe'l shakllari omonimiyasi, turg‘un fe’liy birikma*

#### **Predikativ - sifat**

چشم ھای او گرد شد *Čeşmhā-ye u gerd šod.* “*Uning ko‘zlari dum dumaloq bo‘lib ketdi*” (گرд) *gerd-dumaloq.)*

بندे که پکр بلد نيستم *Bande-ke poker balad nistam.* “*Men axir pokerni bilmayman*”

Sifat bilan ifodalangan predikativ qiyosiy va orttirma daraja shakllarida ham turishi mumkin:

سکوت این مرتبه طولانى تر شد *Sokut in martabe tulānitar šod.* “*Sukut bu safar cho‘zilibroq ketdi*”

Belgi va xususiyat ifodalovchi predikativ ma`no kengaytiruvchi so‘zlar bilan birga kelishi ham mumkin:

زيرسيگارى پر از تهسيگار بود *Zir sigāri por az tahsigār bud.* “*Kuldon sigaret qoldiqlariga to‘la edi*”.

Ayni shu jumlani quyidagicha qayta tashkil qilish ham mumkin:  
زيرسيگارى پر بود از تهسيگار *Zir sigāri por bud az tahsigār*

Yuqoridagi jumla tarkibidagi *por bud* ismiy kesimi az old ko‘makchisi orqali birikkan تهسيگار *tahsigār* so‘zi bilan aniqlanib, ma`nosи kengayib kelyapti.

## Predikativ - sifatdosh

Ma'lumki, hozirgi zamon fors tilida sifatdosh atamasi ostida - ندہ - *ande*, ا -ān, ا -ā, ی -i, ه -e qo'shimchalari yordamida fe'l negizlaridan yasaluvchi shakllar jamlanadi. Bu shakllar fe'l negizi turiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

a) hozirgi zamon sifatdoshlari (ندہ -ān, ا -ā, ه -e qo'shimchalari yordamida yasaladigan)

b) o'tgan zamon sifatdoshi (ه -e qo'shimchasi yordamida yasaladigan)

v) kelasi zamon sifatdoshi (ی -i qo'shimchasi yordamida yasaladigan)

Ammo yuqorida qayd etilgan shakllarning barchasi ham fe'lllik va sifatlik xususiyatlarini birdek namoyon qila olmaydi. Sifatdosh deb ataluvchi shakllar esa nutq jarayonida boshharuv munosabati yaqqol ko'rinish turuvchi birikmalar tuza olishi shart.

Predikativ vazifasini sodda va murakkab fe'lllardan yasalgan ba'zi o'tgan zamon sifatdoshlari bajaradi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

انباشتہ *ambāšte*, پوشیدہ *pušide*, آکشته *ägešte*, آلودہ *älude*, آموختہ *āmuxte*, رسیدہ *raside*, رستہ *raste va b.*

Mazkur sifatdoshlar boshharuv munosabati ko'rinish turadigan birikmalar tuza oladi:

آسمان پوشیدہ از ابر بود *Āsemān pušide az abr bud*. "Osmon bulut bilan qoplangan edi".

Xu bilan bir qatorda خواندہ *xānde*, خاریدہ *nāmide*, خریدہ *xaride*, ساختہ *sāxte* sifatdoshlari predikativ vazifasini bajara va zikr etilgan turdagи birikmalar tuza olmaydi. Ular o'tgan zamon natijali fe'li va majhul daraja shaklining fe'l qismi sifatida ishlatiladi:

او این کتاب را خواندہ است *U in ketāb-rā xānde ast*. "U bu kitobni o'qigan".

Ba'zi sifatdosh shakllari, masalan, افسرده *afsorde* "so'ligan", پوشیدہ *puside* "sasigan, achigan", خوشکیدہ *xoškide* "qurigan" va b. o'zining fe'lllik xususiyatlarini yo'qotgan va sifatdoshli birikmalar tuza olmaydilar. Bunday sifatdoshlar doimiy sifat va belgini ifodalaydigan so'zlar qatoriga o'tib holgan. Demak, predikativ vazifasini bajarishda bular aynan sifatlar turkumiga kiritilishi kerak:

این گلها پژمرده شد *In golhā pajmorde šod*. "Bu gullar so'lib qolibdi".

Bu gapdag'i pajmorde شد پژمرده شد pajmorde šod birikmasini majhul daraja shakli deb ham atash mumkin emas, chunki pajmordan fe'li o'timsiz fe'l va majhul daraja yasalishida ishtirok eta olmaydi.

Murakkab fe'llardan yasalgan sifatdosh shakllarida urg'u o'rni muhim ahamiyatga ega: تحسیل شوهر کرده *tahsilkarde "savodli"*, شوھار کرده *šouharkarde*

“*turmushga chiqgan*” kabi shakllar o‘zlarining o‘tgan zamon natijali fe’li tarkibidagi omonimlaridan urg‘uning oxirgi bo‘g‘inga tushishi bilan farqlanadi. Qiyoslang:

این پسر تحصیل کرده است *In pesar tahsilkardeast.* “*Bu bola ma‘lumotli*”.

این پسر در تهران تحصیل کرده است *In pesar dar Tehrān tahsil karde ast.* “*Bu bola Tehronda o‘qigan*”.

Ismiy kesim tarkibidagi predikativ vazifasida kelasi zamon sifatdoshlari ham (majburiyat sifatdoshlari) qatnashadi. Bu sifatdoshlar fe’lning noaniq shakliga urg‘uli -i qo‘sishimchasini qo‘sish orqali yasaladi. Masalan:

من رفتني هستم (شدم) *Man raftani hastam (šodam).* “*Men ketadiganman(bo ldim)*”.

این موسيقى شニيدنى بود *In musiyi šenidani bud.* “*Bu musiqa eshitishlik edi*”.

Hozirgi zamon sifatdoshlariga kelsak, ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ularning aksariyati ot va sifat turkumlariga o‘tib holgan. Lekin ular fe’l sistemasidan to‘liq uzilib holgan va sifatdoshli birikmalarni umuman tuza olmaydi deb ham aytish mumkin emas. Masalan, qiyoslang:

بنده نويسنده اين ستور نيستم *Bande navisande-ye in sotur hastam.* “*Kamina bu satrlarning yozuvchisiman*”.

این کشورها شرکت کننده در ارتش اروپا هستند *In kešvarhā šerkatkonande dar arteš-e Orupā hastand.* “*Bu mamlakatlar Yevropa armiyasi ishtirokchilaridir*”.

Bu jumlalardan ko‘rib turganimizdek, نويسنده *navisande* va شركت کننده *sherkatkonande* shakllari to‘la ma‘noda sifatdosh deb atalishi mumkin.

Hozirgi zamon sifatdoshlari shakllarining ba‘zilarni predikativ vazifasida ham kuzatish mumkin. Masalan:

کيسه کوچک آويزان به گردنش است *Kise-ye kuček āvizān be gardanaš ast.* “*Kichkina xaltacha bo‘yniga osilgan*”.

Predikativ vazifasini shuningdek, حاضر *hāzer*, مجهز *mojahhaz*, مربوط *marbut* kabi arabiy sifatdosh shakllari ham bajaradi.

Arabiy sifatdoshlar ishtirokida tashkil etilgan birikmalarning ko‘pchiligi bitta tushuncha ifodalaydi va murakkab so‘zlarga aylanish jarayonidan o‘tib bormoqda:

موارد بحث قابل عبور *yābele obur* “*o‘tsa bo‘ladigan*”, *mouredede bahs* “*bahsga loyiq*”, va b.

Bunday birikmalar ham predikativ vazifasini bajaradi:

این راه ها قابل عبور نист *In rāhhā yābele obur nist.* “*Bu yo‘llardan o‘tib bo‘lmaydi*.”

## Predikativ - fe'lning noaniq shakli

Predikativ vazifasini bajaruvchi fe'lning noaniq shakli mazkur vazifadagi boshqa fe'liy shakllar yoki masdarlardan hech qanday farq qilmaydi:

فريـب دادـن او نـبـود  $\gamma asdam ferib dādan-e u nabud$ .  
“Maqsadim uni aldash emas edi”.

### Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Sifatlarning predikativ vazifasini bajarishi.*
2. *Sifatdoshlarning qaysi turlari ko‘proq predikativ vazifasida ishlatiladi?*
3. *Sifatdosh boshqa fe’liy shakllardan nimasi bilan farqlanadi?*
4. *Hozirgi zamон sifatdoshlarining predikativ vazifasini bajarishi.*
5. *Kelasi zamон sifatdoshlari predikativ vazifasida qanday ishlatiladi?*
6. *Murakkab fe'llardan yasalgan o‘tgan zamон sifatdoshlari omonimiysi.*
7. *O‘tgan va hozirgi zamон sifatdoshlari fors tilida qanday nomlanadi?*
8. *Arabiy sifatdoshlarning predikativ vazifasini bajarishi.*
9. *Sodda gap sintaksisi qaysi olim tomonidan mufassal o‘rganilgan?*
10. *Sifatdoshlarning xususiyatlari qaysi tadqiqotchi tomonidan o‘rganilgan?*

## *To ‘qqizinchi mavzu*

### **Fe’liy-ismiy kesim. Kesimning boshqa turlari**

#### **1.Fe’liy-ismiy kesim.**

**2.Fe’ldan boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalangan sodda kesim.**

**3.Predikativ tipidagi sintaktik guruh bilan ifodalangan kesim.**

#### **Tayanch so‘zlar va iboralar:**

*Fe’liy ismiy kesim, o’timli fe’l, o’timsiz fe’l, ravish kesim, undov kesim, so‘zlarning predikativ guruhi, sintaktik guruh, ega bilan munosabat.*

#### **Fe’liy-ismiy kesim**

Fe’liy ismiy kesim deb, ma’lum bir ismiy va fe’liy qismlaridan iborat kesim turiga aytildi. Fe’liy qism bunday birikmalarda sodda yoki murakkab fe’llar bilan ifodalanishi mumkin.

Hozirgi zamon fors tilida fe’liy-ismiy kesimlarning quyidagi ikki turi mavjud:

1.Fe’liy-ismiy kesimlarning birinchi turi gapning egasi xaqida kengaytirilgan ma’lumot beradi, ya’ni ega predikatsiyada ishtirok etayotgan ham fe’liy va ham ismiy qismlar yordamida tasvirlanadi.

Masalan, quyidagi jumlada man “men” kishilik olmoshi bilan ifodalangan ega ikki tomonlama tasvirlanayapti:

در آن اطاق من بیمار پروردہ شده ام Dar ān otāy man bimār parvarde šode-am. “Men o’sha xonada kasalvand bo’lib katta bo’ldim”

fe’liy qism - ام پروردہ parvarde šode-am, ismiy qism - بیمار bimār.

Bunday kesimlarning ismiy qismi o‘rnida ot, sifat va xatto, so‘z birikmalari ham ishlatilishi mumkin. Fe’liy qism sifatida esa odatda o’timsiz fe’llar - harakat, holat fe’llari ishlatiladi, masalan,

ایستادن istādan, خوابیدن xābidan, برگشتن bar gaštan, آمدن āmadan, harakat kardan, بلند شدن boland šodan حرکت کردن va b.

Jumlalarga diqqat qiling:

آنها قهرمان مسابقه شناختе شدند Ānhā yahramān-e mosābaye šenāxte šodand. “Ular musobaqa chempioni deb tanildilar”.

مادарم ابله به دنيا آмде *Mādaram abləh be donyā āmade*. “*Onam aqli hushi past holda dunyoga kelgan*”.

2. Fe’liy-ismiy kesimlarning ikkinchi turi gap tarkibida boshqa bo‘laklar bilan ham bog‘langan bo‘ladi. Bunday kesimlar nafayat ega bilan balki o‘zining ismiy qismi orqali to‘ldiruvchi bilan ham bog‘lanadi.

Ikkinci turdag'i kesimlarning ismiy qismi o‘rnida har qanday ot, sifat va sifatdoshlar ishlatilishi mumkin bo‘lsa, fe’liy qismi sifatida ko‘pincha quyidagi kabi o‘timli fe’llar ishtirok etadi:

احساس کردن *ehsās* دیدن *didan*, شمار آوردن *be šomār āvardan*, تلقى کردن *talayyi kardan*, نامیدن *nāmidan*, شناختن *šenāxtan*, معرفى کردن *moarrefi kardan*, خواندن *xāndan*

ما او را دوست خود میشناختیم *Mā u-rā dust-e xod mišenāxtim*. “*Biz uni o‘z do ‘stimiz deb hisoblardik*”.

### Fe’ldan boshqa so‘z turkumlari (ravish-undov) bilan ifodalangan sodda kesim

Fors tilida fe’llardan boshqa so‘z turkumlariga xos bo‘lgan, lekni fe’l o‘rniga kesim vazifasini bajara oladigan so‘zlar ham mavjud. Aytish lozimki, bunday so‘zlar ko‘p emas, ular qatoriga *ku* “*qaerda?*” predikativ ravishi, چه *če* “*nima?*” so‘roq olmoshi, bir nechta undov so‘zlari va *alef-e nedā* الف ندا فعل *esm-e fe’l* “*fe’liy so‘z*” yoki *jāneshin-e fe’l* “*fe’l o‘rinbosari*” atamalari bilan nomlaydilar.

کو *Ku* ravishi va چه *če* so‘roq olmoshlari kesim vazifasida fayat so‘roq gap tarkibida ishlatiladi va eganing o‘rni yoki holati xaqida ma’lumot olish uchun ishtirok etadi. Ular gapning boshida yoki oxirida joylashishi mumkin.

کو جای آnten رадио *Ku jā-ye ānten-e rādyo?*

“*Qani radio antennasi uchun joy?*”

الف ندا *Alefe nedā* orttirilgan undov so‘zlar qis-qayajon gaplar tarkibida kesim vazifasida keladi.

خوش شираز وضع بى مثالىش خداوند نگهدар از زوالش *Xošā Širāz vaz'-e bi mesālaš xodāvand negahdār az zavālaš*. “*Go‘zaldır Sherozning manzarasi va obro‘sı baland, saqlasin uni zavolo ‘zarardan xudovand*”.

خوش *Xošā* undov so‘zi bilan ifodalangan kesim bu jumlada uyushgan ikki egaga *Širāz va vaz'* (شیرا ز وضع) tegishli va ularning belgi va xususiyatlarini ifodalaydi va ishlatilishi lozim bo‘lgan *xošast* ot kesimning o‘rnini bosadi.

Bunday undov ravish bilan ifodalangan kesimlar qatoriga shuningdek,

دريغ "dariy" "vodarig", ز هي "zehi" "ofarin" каби со'зларни ham kiritish mumkin.

Ularning hammasi fayatgina ega bilan munosabatda bo'lган holatlarda kesim vazifasini bajara oladi. Agar ega bo'lmasa ular bir tarkibli sodda gaplar tashkil qiladi:

دريغا ! Dariyā! Vodarig !

کو Ku va či kesimlari ko'proq og'zaki nutq yoki shevada ishlatilish xususiyatlariga ega. Undov kesimlar esa, asosan, tantanavorlik va kuchli ehtirosni ifodalash uchun ishlatiladi.

### Predikativ tipidagi sintaktik guruh bilan ifodalangan kesim

Bunday sintaktik guruhlarga misol tariqasida butun tarkibi bilan kesim vazifasini bajaradigan va ega bilan egalik qo'shimchalari orqali bog'langan predikativ guruhlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, quyidagi jumлага diqqat qiling:

اسب قيمتش گران است Asp yeymataš gerān ast. "Otning narxi qimmat".

Bu jumlada biz asosiy predikativliklarni juda yorqin ifodalovchi ikkita tarkibini kuzatishimiz mumkin. Bu predikativlik "belgi egasi - belgi" ko'rinishiga ega. Belgi egasi bo'lган asp so'ziga belgini ifodalovchi قيمتش گران است yeymataš gerān ast murakkab birikmasi kesim holida keltirilgan.

Bunday jumlalarga qatoriga quyidagi misolni ham kiritish mumkin:

تو هم لابد گرسنه اته To ham läbod gorosne-at-e. "Hoynahoy sen ham ochdirsan".

### Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Fe'liy ismiy kesim .*
2. *Fors tilida fe'liy ismiy kesimning turlari .*
3. *Fe'liy ismiy kesimning har bir turida ishlatiluvchi fe'llar.*
4. *Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadigan kesimlarning turlari.*
5. *Mazkur kesimlar tilning qaysi uslubida ko'proq ishlatiladi?*
6. *Predikativ tipidagi sintaktik guruhlar bilan kesimlarning ko'rinishlari.*

## *O‘ninchи mavzu*

### **Kesimning ramkali qurilmasi**

- 1.Ramka tashkil qila oladigan kesim shakllari**
- 2. *dāštan “ega bo‘lmoq” fe’li ishtirok etadigan ramkali qurilma***
- 3.Murakkab fe'l va “sifatdosh+bog‘lama” birikmasi bilan ifodalangan kesimning ramkali qurilmasi**

**Tayanch so‘zlar va iboralar:**

*Ramkali qurilma, analitik shakl, distant holat, kontakt holat, murakkab (qo‘shma) fe'l, "qotib" holgan ramkali qurilmalar, "sifatdosh+bog‘lama" shaklidagi kesim, ramka-klishelar.*

### **Ramka tashkil qila oladigan kesim shakllari**

Ramkali qurilma bu kesimning tarkibiy qismlari bir-biridan ajralgan va ular orasigi gapning ikkinchi darajali bo‘laklari kiritilgan ko‘rinishidir. Mazkur ikkinchi darajali bo‘laklar butun kesim guruhining (ma`lum bir qismining emas) ma`nosini aniqlashtirib, kengaytirib beradi.

Ramkali qurilmani kesimning quyidagi shakllari tashkil qila oladi:

1. *dāštan “ega bo‘lmoq” fe’li ishtirokida yasaladigan davomli konkret analitik shakllari.*
- 2.Murakkab fe'l bilan ifodalangan kesimlar.
- 3.Modal-maqsadli xarakterga ega fe’liy so‘z birikmalari bilan ifodalangan kesimlar
- 4.Sub’ektiv infinitivli fe’liy so‘z birikmalari bilan ifodalangan kesimlar.
- 5.Sifat yoki sifatdosh va bog‘lama birikmasi bilan ifodalangan kesimlar.

Ramkali qurilmalarning ba`zi shakllarini ko‘rib chiqamiz:

#### **1. داشتن “ega bo‘lmoq” fe’li bilan yasalgan analitik shakllar**

Kesimning bunday shakli o‘z tarkibiy qismlarining kontakt holatini yo‘qotib, ramkali qurilma tashkil etadi va ular orasiga ikkinchi darajali bo‘laklar kiradi : Masalan::

آقاي على افنيني دار ديوانه ميشود *Āqāye Ali Afnini dārad divāne mišavad. “Janob Ali Afniniy es hushini yo‘qotib borayapti”.*

هوا داشت سرد ميشد *Havā dāšt sard mišod. Havo sovib borardi.*

Mazkur misollarda داشتن *dāštan* fe'li bilan yasalgan analitik shakllarning kontakt holati ishlatilgan. Ammo quyidagi jumlalarda esa tarkibiy qismlarning distant holati yuzaga kelib, ramkali qurilma tashkil qilingan::

اداره سیاسى دارد او را فریب میدهد *Edāre-ye siyāsi dārad u-rā ferib midexad.* “*Siyosiy boshqarma uni aldayapti*”.

## 2. اظهار کردن *jalb kardan, ezhār kardan kabi murakkab fe'llar bilan ifodalangan kesimning ramkali qurilmasi*

Bunday ramkali qurilmalar hozirgi fors tilida keng tarqalgan. Murakkab fe'lning semantikasi kontakt holatda ham, distant holatda ham o'zgarmaydi. Qiyoslang:

من توجه او را جلب کردم *Man tavajjoh-e u-rā jalb kardam*  
yoki

من جلب توجه او را کردم *Man jalb-e tavajjoh-e u-rā kardam.*  
“*Men uning diqqatini jalb etdim*”

Shunisi aloqida diqqatga sazovor va juda muhimki, ramkali qurilmaning bunday ko'rinishlari asosida yangi va yangi murakkab frazeologik birikmalar vujudga kelib boradi. Bu, asosan, ramkali qurilma ichiga kiritilgan ikkinchi darajali bo'lakning o'sha joyda qotib qolib turg'un so'z birikmasi tashkil qilishi oqibatida yuz beradi. Bunday birikmalarda kamida uchta mustaqil so'z ishtirok etadi:

نقل مکان کردن *nayl-e makān kardan* “*ko 'chmoq, joyini o 'zgartirmoq*”  
تمدید محلت دادن *tamdid-e mohlat dādan* “*muddatni uzaytirmoq*”

Jumla tarkibiga e'tibor qiling:

وی بیمار شد و به دهکده ووم دقل مکان کرد *Vey bimār šod va be dehkade-ye Vaum nayl-e makān kard.* “*U kasal bo 'lib holdi va Vaum qishlog 'iga ko 'chib o 'tdi*”.

Ramkali qurilmalar yordamida fors tilida atamalarga aylangan ismiyturg'un birikmalar ham paydo bo'lgan:

تجدید نظر *tajdid-e nazar* “*qayta ko 'rib chiqish*”

تجدید ساختمان *tajdid-e sāxtemān* “*qayta qurish*”

## 3. قادر بودن وارد شدن *vāred šodan, yāder budan kabi "sifatdosh+bog'lama"* tarkibli birikmalardan yasalgan ramkali qurilmalar

Bunday ramkali qurilmalar ham fors tilida juda keng tarqalgan:

مسافر وارد کافه شد *Mosāfer vāred-e kāfe šod.* “*Yo 'lovchi kafega kirdi*”.

آنها قادر به اجرای چنین کاری نیستند *Ānhā yāder be ejrā-ye čenin kār-i nistand.*

“Ular bunday ishni bajarishga qodir emaslar”.

Yuqoridagi ikki jumlada biz predikativ vazifasidagi arabiylar sifatdoshlarning ramkali qurilma tarkibiga kiritilgan ikkinchi darajali bo‘laklar bilan ikki qil usulda birikishini kuzatishimiz mumkin:

- birinchi jumlada izofa yordamida;
- ikkinchi jumlada بے be old ko‘makchisi vositasida.

Xuddi mana shu ramkali qurilma shaklidagi kesimlarni hech qanday ma’no o‘zgarishisiz kontakt xolatiga bemalol o‘tkazsa bo‘ladi.

Fors sifat va sifatdoshlari predikativ vazifasida ishlatilgan birikmalar haqida ham yuqoridagi fikrlarni bildirish mumkin, masalan:

آماده *dārā budan* بودن “ega bo‘lmoq”; متصرف *motassaref šodan* شدن “tayyor bo‘lmoq” va b.

Ammo shuni ham hisobga olish kerakki, sifatdosh-ad’ektiv tipidagi kesimlarning hammasi ham ramkali qurilma tashkil qila olmaydi. Masalan:

متصرف شدن *montayel šodan* “ko‘chirilmoq”, متنقل شدن *motassaref šodan* “egallab olmoq” va b.

### **Murakkab fe'l va “sifatdosh+bog‘lama” birikmasi bilan ifodalangan kesimning ramkali qurilmasi**

Bunga harama-harshi o‘laroq, kesimning shunday shakllari mavjudki, ular aksariyat xollarda ramkali qurilma shaklida ishlatiladi. Masalan:

آيد شدن *āyed šodan* “kelmoq (daromad, pul mablag‘lari haqida)”; شامل بودن *šāmel budan* “o‘z ichiga olmoq” va b.

Kuyidagi jumлага e’tibor qiling:

این قانون شامل پنج ماده است *In yānun šāmel-e panj mādde ast*  
“Bu qonun besh moddani o‘z ichiga olgan”

Ramkali qurilma shaklida ko‘proq ishlatiladigan kesim shakllariga shuningdek, مقيم بودن *moyim budan* “bo‘lmoq (biror joyda)”; قادر بودن *fāyed budan* “mahrum bo‘lmoq” va boshqa qator birikmalar kiradi.

Ramkali qurilmalar asosida quyidagi ramkali klischeler ham tashkil topgan:

مورد چизى واقع شدن *moured-e čizi vāye’ šodan*;

مورد چизى قراردادن *moured-e čizi yarār dādan*;

قابل چизى بودن *yābel-e čizi budan* va b.

Bunday birikmalar fayat ramka tarkibiga tegishli so‘z kiritilgandan so‘nggina aniq ma`no kaso‘z birikmasi etadi:

مورد مطالعه قرار دادن *moured-e motāle-e yarār dādan* “*o‘rganmoq tadqiq qilmoq*”;

قابل کشتیرانی بودن *yābel-e keštirāni budan* “*kema qatnoviga mos bo‘lmoq*”.

Kesimning ramkali qurilmasi rus olimlari L.S Peysikov va Yu.A Rubinchik tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ammo Eron tilshunoslarining tadqiqotlarida bu masala e’tibordan chetda qolib kelmoqda.

### **Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar**

1. *Ramkali qurilma atamasi qanday qodisaga niso‘z birikmasiatan ishlatiladi?*
2. *Gapning qaysi bo‘laklari ramka tarkibiga kiritiladi?*
3. *Qaysi turdagи kesimlar ramkali qurilma tashkil qila oladi?*
4. *doshtan "ega bo‘lmoq" fe’li yordamida fe’nning qanday analitik shakllari yasaladi?*
5. *Murakkab fe’lli ramkali qurilmalar qanday tashkil topadi?*
6. *Ramkali qurilmalar qanday birliliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin?*
7. *"Sifatdosh+bog‘lama" tarkibli kesimlar qaysi usulda ramkali qurilma tashkil qiladi?*
8. *Sifatdosh-ad’ektiv tipidagi kesimlarning ramkali qurilma tashkil qilishi.*
9. *Qaysi birikmalar aksariyat hollarda ramkali qurilma shaklida ishlatiladi?*
10. *Qaysi olimlar ramkali qurilmalarni chuqur o‘rganganlar?*

## ***O‘n birinchi mavzu***

### **Gap bosh bo‘laklarining moslashuvi**

- 1.Moslashuv atamasining fors tiliga niso‘z birikmasiatan qo‘llanilishi**
- 2.Bosh bo‘laklar moslashuvida jonli va jonsiz predmetlar muammosi**

#### **Tayanch so‘zlar va iboralar:**

*Moslashuv, predikativlik munosabati, morfologik moslashuv, ma`no moslashuvi, so‘z tartibi, intonatsiya, jonlilik/jonsizlik kategoriyasi, ahl so‘zi, Pluralis majestatis*

#### **Moslashuv atamasining fors tiliga niso‘z birikmasiatan qo‘llanilishi**

Moslashuv atamasi odatda gapning bir bo‘lagining boshqa bo‘lagiga shaklan va morfologik jiqatdan moslash ishi qodisasiga niso‘z birikmasiatan qo‘llaniladi. Umuman olganda, moslashuv bosh va tobe so‘zlar orasida amalga oshadi.

Ammo fors tiliga niso‘z birikmasiatan oladigan bo‘lsak, moslashuv atamasi ostida fayat gapning ega va kesimi o‘rtasidagi shakliy va grammatick munosabat tushuniladi. So‘z birikmali tizimida moslashuv umuman ishlatilmaydi. Demak, fors tilida moslashuv fayat gap tarkibida ma`no va mantiq nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan qodisa deb haralishi lozim. “Belgi egasi-belgi” predikativ munosabatlari ega va kesim orasidagi ma`no bog‘liqligi bilan ta`minlanadi. Bunday bog‘liqlik morfologik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki boshqa til vositalari yordamida ifodalanganadi (so‘z tarkibi, intonatsiya, pauza).

Quyidagi jumlaga e’tibor qiling:

د و س ت ا ن مَا ا م روز د ر ر س ت د ا ر ن د *Dustān-e mā emruz dars dārand.*  
“Bugun bizning do’stlarimizning darslari bor”.

Mazkur jumlada biz jonli predmet nomi bilan ifodalangan eganing kesim bilan morfologik shakllarni o‘zaro bir-biriga yaqinlashtirish yo‘li orqali moslash- ganini ko‘rshimiz mumkin. Bunga yana so‘z tartibi va intonatsiyani ham qo‘yish kerak.

Yana bir jumlanı ko‘rib chihamiz:

پنج نفرى يك كوبه شش نفرى گرفتيم *Panj nafari yek kupe-ye šeš nafari gereftim.* “Besh kishi (biz) olti kishilik kupeni oldik”

O‘zingiz guvoqi bo‘lib turganingizdek, bu jumlada morfologik o‘xshashlikdan asar ham yo‘q. Lekin predikativlik munosabati ma`no, so‘z tartibi va

intonatsiya yordamida deyarli to‘liq ta` minlangan.

فرزندанм کо؟ *Farzandānam ku?* “*Farzandlarim qani?*” jumlasidagi g‘am ega *farzandānam*) va kesim (کو) *ku*) o‘rtasidagi bog‘liqlik fayat ekspressiv-so‘roq intonatsiyasi vositasi bilangina yuzaga kelgan.

اسب قиметш گран аст *Asp yeymataš gerān ast* “*Otning narxi qimmat*” jumlasida esa predikativlik munosabati ega va kesim shaxsini egalik qo‘sishimchasi, so‘z tartibi va intonatsiya orqali moslash tirish yordamida ifodalangan.

### Bosh bo‘laklar moslashuvida jonli va jonsiz predmetlar muammosi

Kesimning ega bilan shaklan va ma`no jiqatlaridan to‘liq moslash ishi, asosan, gapning egasi jonli predmet nomi bilan ifodalangan hollarda yorqin namoyon bo‘ladi. “*Jonli predmet*” tushunchasi odamdan tortib mikroblargacha bo‘lgan jonli mavjudotlar va jonli mavjudotlarga tenglashtirilgan predmetlarni o‘z ichiga hamrab oladi:

زنبورها صدای خفه و یکنواخت داشتند *Zamburhā sedā-ye xafe va yeknavāxt dāštand*. “*Arilarning ovozlari bo‘g‘iq va bir xil edi*” (aynan: *arilar bo‘g‘iq va bir xil ovozga ega edilar*).

حتى سگهای ولگرد هم همیشگی نیستند *Hattā saghā-ye velgard ham hamishegi nistand*. “*Hatto daydi itlar ham har doimgidek emasdilar*”.

Ammo agar ega “*jonli predmet*” tushunchasiga mos kelmaydigan so‘z bilan ifodalangan bo‘lsa kesim odatda u bilan sonda moslash maydi. Masalan:

کوچه های تنگ و کثیف غرق آفتاب بود *Kučehā-ye tang va kesif yary-e āftāb bud*. “*Iflos va tor ko‘chalar oftob tig‘ida holgan edi*”.

Jamlash kategoriyasi fosr tilida jonlilik kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq va o‘ziga xos garammatik belgilarga ega.

Jamlash kategoriyasi guruhidagi otlarga shaxslarning bir butunligini (ya’ni tarkibiy qismlarga parchalab bo‘lmaydigan) ifodalaydigan so‘zlar kiradi va ular kesim bilan ko‘plik shaklida moslash adi. Bunday so‘zlarga quyidagi lug‘at birliklari:

بـانـد *bānd* “*banda*”, خـانـوـادـه *xānevāde* “*oila*”, قـومـ *qabila*, اـهـلـ خـانـه *ahl-e xāne* “*uydagilar*”, اـهـلـ قـلمـ *ahl-e yalam* “*yozuvchilar*”, اـهـلـ خـبرـه *ahl-e xebre* “*ekspertlar*” va x.k.

Yuqorida sanab so‘zlar albatta, so‘z birikmalari esa fakultativ ravishda kesim bilan ko‘plik sonida moslash adi, masalan:

Yek daste gadā vāred šodand. “Bir to ‘p gadoylar kirdilar”. یک دسته گدا وارد شدند.

Bayiye dar šarāyet-e بقیه در شرایط موقشی به سر میبرند mouyeši be sar mibarand. “Qolganlar dahshatli sharoitlarda yashaydilar”. γ

Ammo predmetlar to‘plamini ifodalovchi so‘zlarning barchasi ham jonli va jamlanma otlar qatoriga kirmaydi. Masalan:

رخت raxt “ko ‘rpa to ‘shak jildi”, هیزم hizom “o ‘tin” va x.k

Kesimning shaxs son shakli esa olmosh yoki olmoshli birikmalarning jonli yoki jonsiz ot ma`nosini ifodalashiga bog‘liq. Masalan:

همه از سر سفره گشنه بلند میشدند Hame az sar-e sofr-e gošne boland mišodand. “Hammalari dasturxāndan och-nahor holda turardilar”.

ولی هیچ کدام راضی نمیشدند Vali hič kodām rāzi nemišodand. “Lekin ularning hech qaysisi rozi bo ‘lmasdi”.

Qiyoqlang:

اینها هیچ کدام اهمیت نداشت Inhā hič kodām ahamiyati nadāšt. “Bularning hech qaysisining axamiyati yo ‘q edi”.

Keltirilgan misollarda ko‘rib turganimizdek ega va kesimning moslashuvi ega vazifasidagi so‘zning jonli va jonsiz predmet nomidan iboratligiga bog‘liq.

Shu bilan birga jonli predmet nomi bilan ifodalangan ega qatnashgan jumlalarda ega va kesimning moslash maslik holatlari ham ko‘p uchraydi. Bunday holatlardan biri jumla tarkibida Pluralis majestatis “ehtiromning ko‘plik shakli” ishlatalishida kuzatiladi:

جناب آقاي يتيمنواز از بازرگانان معتبر شهر میباشد Janāb Āyā-ye Yatimnavāz az bāzargānān-e mo ‘tabar-e šahr mibāšand. “Yatimnavoz janobi oliylari shaharning mo ‘tabar savdogarlaridan ”.

### Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar

1. Moslashuv atamasi qanday qodisaga niso ‘z birikmasiatan ishlataladi?
2. Fors tilida gapning qaysi bo ‘laklari moslash adi?
3. Fors tilida moslashuvning qanday vositalari mavjud?
4. Jonli predmet nomi bilan ifodalangan eganing kesim bilan moslashuvi.
5. Jonli otlar guruhi.
6. Barcha jonli mavjudotlar nomi jonli otlar guruhiga kiradimi?
7. Ega hame, qichko ‘dom va shu kabi olmoshlar bilan ifodalanganda kesim bilan qanday moslash adi?
8. Pluralis majestatis bilan ifodalangan eganing kesim bilan moslashuvi.
9. Jonsiz ot bilan ifodalangan eganing kesim bilan moslashuvi.

## ***O‘n ikkinchi mavzu***

### **Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari**

#### **To‘ldiruvchi**

1. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklarining umumiyl tavsifi  
(to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol)
2. To‘ldiruvchi

#### **Tayanch so‘zlar va iboralar:**

*Ikkinci darajali bo‘laklar, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol, ro ko‘makchisi, egalik qo‘sishimchalari, old ko‘makchilar, ob’ekt-ega, vositasiz to‘ldiruvchi, vositali to‘ldiruvchi.*

#### **Gapning ikkinchi darajali bo‘laklarining umumiyl tavsifi (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol)**

Gap tarkibida bosh bo‘laklarni izoqlash, ularning ma`nosini ochibroq berish vazifasini bajaruvchi bo‘laklar ikkinchi darajali bo‘laklar deb ataladi. Ikkinci darajali bo‘laklar bosh bo‘laklarni izoqlash asnosida o‘zları ham boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar yordamida aniqlanishi va izoqlanishi mumkin. Demak bosh bo‘laklar atrofida tobelikning bir necha bosqichini o‘z ichiga oluvchi ikkinchi darajali bo‘laklarning guruhlari jamlanishi mumkin bo‘ladi.

Quyidagi jumлага diqqat qiling:

مسافرت احمد پنج سال طول کشید *Mosāferat-e Ahmad panj sāl tul kešid*. “Ahmadning safari besh yil davom etdi”.

Mazkur jumladagi ega - احمد *mo ‘soferat* - *Ahmad* so‘zi bilan aniqlanib kelayotgan bo‘lsa kesim - طول کشید *tul kešid* esa پنج سال *panj sāl* birikmasi yordamida izoqlanyapti.

Keyingi jumлага ham e’tibor bering:

این جنگل در کوه های عظیم محصور است *In jangal dar kuhhā-ye azim mahsurast*. “Bu o‘rmon baland tog ‘lar bilan o‘ralgan”.

Ega - *in* ko‘rsatish olmoshi bilan aniqlanmoqda, kesim - *mahsurast* esa در کوه ها *dar kuhhā* birikmasi yordamida izoqlanyapti. O‘z navbatida در کوه ها *dar kuhhā* birikmasi (ya`ni ikkinchi darajali bo‘laklar) ham عظیم *azim* so‘zi bilan aniqlanyapti.

Ikkinci darajali bo'laklar bir tarkibli gaplarda xam ishlatilishi mumkin. Masalan, quyidagi nominativ jumlaga diqqat qiling:

شب خيلى گرمىش شد Šab xeyli garmaš şod “Kechasi u juda issib ketdi”.

Bosh bo'lak - گرمىش شد garmaš şod ikkita ikkinchi darajali bo'lak ( شب ab va خيلى xeyli) yordamida izoqlanmoqda.

Predmetlik ma'nosiga ega gap bo'lagiga tegishli bo'lgan va uni belgi xususiyat jiqatlaridan tavsiflaydigan ikkinchi darajali bo'lak aniqlovchi deb ataladi.

Gapning fe'l bilan ifodalangan bo'lagiga tegishli bo'lgan va o'sha ish harakat o'tadigan predmet ma'nosini ifodalaydigan yoki o'sha ish-harakat natijasi hisoblanadigan yoki ish-harakat ob'ekti ma'nosini beradigan ikkinchi darajali bo'lak to'ldiruvchi atamasi bilan nomlanadi. Fors tilida gap tizimida biz to'ldiruvchi sifatida fayat fe'lga tegishli to'ldiruvchilarni ko'rib chihamiz.

عبور از entexāb-e vakil “deputat saylaš”, وکیل obur az rüdxāne “daryoni kechib o'tish” kabi ismiy turkumlarga tegishli to'ldiruvchilar esa so'z birikmalari tizimida ko'rildi (“So'z birikmalari sintaksi” bo'limiga harang).

Fe'l, harakat nomi, sifat yoki ravish bilan ifodalangan gap bo'lagiga tegishli bo'lgan va ish-harakat bajarilishini yoki tegishli xolatni tavsiflaydigan yoki ish-harakatning bajarilishi usuli, tarzi, vayti, o'rni, sababi, maqsadi va sharoitlarini ifodalaydigan ikkinchi darajali bo'laklar hol atamasi bilan nomlanadi.

### To'ldiruvchi (مفعول maf'ul)

To'ldiruvchi gapning kesimiga tegishli bo'lib, o'zining kesim bilan semantik va grammatik munosabatlari harakteriga ko'ra *vositasz* va *vositali* to'ldiruvchilarga bo'linadi.

### Vositasz to'ldiruvchi (مفعول صريح maf'ul-e sarih)

Vositasz to'ldiruvchi fayat o'timli fe'l kesimdagi ish-harakat ob'ekti, ya'ni ish-harakat bevosita uning ustida bajariladigan predmetni ifodalaydi. O'timli fe'l kesim ro ko'makchisi bilan yoki uning ishtirokisiz ishlatiladi. ro ko'makchisi vositasz to'ldiruvchi aniq, ma'lum, konkret predmetlarni ifodalaydigan xollarda ishlatiladi. Shunday qilib, ro ko'makchisi predmet va qodisalar turkumidan ma'lum birini ajratib ko'rsatish vositasi vazifasini ham bajaradi deyish mumkin. Mazkur vazifa ro ko'makchisini yo-ye vaqdad “aniqlik artikli” bilan yaqinlashtiradi. Aynan shu fikr Eron tilshunosi Xumoyun Farrux va rus eronshunosi L.S Peysikov tomonidan ilgari suriladi.

Vositasiz to‘ldiruvchiga ro ko‘makchisining orttirilishi yoki orttirilmasligi holatlarini o‘zbek tilidagi tushum kelishik qo‘srimchasing (ni) ishlatalishi bilan qiyoslasa bo‘ladi.

Vositasiz to‘ldiruvchi agar atoqli ism va olmoshlar bilan ifodalangan bo‘lsa yoki unga atoqli ismlar, olmoshlar, egalik qo‘srimchalari tegishli bo‘lsa hamisha ro ko‘makchisi bilan birga ishlataladi masalan:

در ایران شاید يك دفعه هم او را با دختری ندیدم *Dar Irān šāyad yek dafe' ham u-rā bā doxtari nadidam*.

“Eronda uni xatto biror marta ham biror qiz bilan ko‘rmadim”.

Og‘zaki nutq va folklor namunalarida ularning ta`sirida badiiy adabiyotda ham vositali va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida egalik qo‘srimchalaring ishlatalish holatlari kuzatiladi. Mazkur holatlarda egalik qo‘srimchalari fe’llarning aniq shakllari - kesimlarga yoki old ko‘makchilarga qo‘shilgan xolda ishlataladi:

دیدمش *didam-aš* “men uni ko‘rdim”, بهش گفتم *beheš goftam «unga aytdim»*.

Murakkab fe’l kesimlarga qo‘shilganda egalik qo‘srimchalari odatda ismiy qismga , kamdan-kam hollarda yordamchi fe’lga birikadi:

بـه جـزـيرـه كـيـش تـبعـيد كـرـدـنـد ... ... *be jazire-ye Kiš tab'id-aš kardand*. “...uni Kesh oroliga surgun qildilar”.

تـا هـسـت او هـسـت دـارـمـش دـوـسـت *Tā hastam u hast dāram-aš dust*. “Toki men-u tirikmiz uni sevgayman”.

Gapning bosh bo‘laklaridan biri bo‘lgan ega haqidagi boblarda aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gapning bosh gapi tarkibidagi “ob’ekt - ega” ( مـبـتـدـاـي مـفـعـولـى *mobtadā-ye maf’uli*) atamasi ham ishlatalgan edi. Bunday eganing o‘ziga xos tomoni shundaki, u o‘zida رـا rā ko‘makchisi ortirilgan vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini mujassam etadi. Masalan:

دو نفرى را که من مىشناختم قبل ار من گرفتار شده بـودـنـد *Do nafari rā ke man mišenāxtam yabl az man gereftār šode budand*. “Men taniydigan ikki kishi mendan oldin hamoqqa olingan edilar”.

Agar vositasiz to‘ldiruvchi ifodalayotgan predmet yoki qodisa butun turkum va turning vakili sifatida anglansa, ro ko‘makchisi ishlatilmaydi:

يك لـقـمه نـان بـه او مـيـدـاد *Yek loyme nān be u midād*. “Unga bir

*burda non berardi*" (*boshqa narsa emas*).

خداداد... نیروی تازه در رگ پی پیرش حس میکرد  
*Xodādād...niru-ye tāze-e dar rag-o pey-ye piraš hess mikard.*  
"Xudodod...o 'zining qarigan tomiru-paylarida yangi bir kuch qis qilardi".

Qiyoslang:

آب بده *Āb bedeh*. "Suv ber".

آب را بده *Āb-rā bedeh*. "Suvni ber" (*ya`ni aniq bir suvni*).

### Vositali to‘ldiruvchi (maf’ul-e yeyre sarih) مفعول غير صريح

Vositali to‘ldiruvchilarga predmetning ish-harakatiga bo‘lgan turli munosabatlarni ifodalovchi barcha to‘ldiruvchilar kiradi. Vositasiz to‘ldiruvchilar odatda ot va old ko‘makchi birikmasi bilan ifodalanadi.

Vositali to‘ldiruvchilar orasida shartli ravishda "kuchli boshqaruв" ifodalaydigan fe’llarga tegishli bo‘lgan to‘ldiruvchilar ajralib turadi. Bunday fe’llarga quyidagilarni misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi:

عبور استفاده کردن *Defā’ kardan*, دفاع کردن *estefāde kardan*, پشتبانی کردن *poštebāni kardan* va b.

Mazkur fe’llar to‘ldiruvchi oldidan muayyan old ko‘makchi (ko‘pincha az old ko‘makchisini) ishlatalishini talab qiladi. Masalan:

Az kuče-ye از کوچه خاکی گدخته رد شدیم و او مدیم خیابان *xāki-ye godāxte rad šodim va umadim xiyābān*. "Tor va chang tuzon ko‘chadan o‘tdik va shohko ‘chaga yetib keldik".

Ba’zi fe’llar ham vositali, ham vositasiz to‘ldiruvchini talab qilishi mumkin, ya`ni to‘ldiruvchiga ham old ko‘makchi, ham ro ko‘makchisi qo‘sila oladi:

افزوden دعوت کردن *afzudan* دعوت *da`vat kardan* (را *rā* به *be*); *be* va به *be* va را *rā*) "ko‘paytirmoq"

او را دعوت *U-rā da`vat kardand*. "Uni taklif qildilar".

حزب از تمام زحمتکشان دعوت میکند که ... *Hezb az tamām-e zahmatkašān da`vat mikonad ke ...* "Partiya barcha mehnatkashlarni ...ga chaqiradi".

Aloqida e’tiborni jalb qiladigan tomoni shundaki, bu fe’llar o‘timli, aktiv ish-harakat ma’nosini ifodalashiga haramay, to‘ldiruvchi از old ko‘makchisini qabul qiladi. Tilshunos olimlar bu holatni arab tilining ta’siri bilan

izoqlaydilar. Ma'lumki arab tilida “*foydalanmoq*”, “*taklif qilmoq*” va shu kabi boshqa fe'llar *jı az -dan* old ko'makchisi bilan ishlatiluvchi to'ldiruvchilarni talab qiladi.

Egalik qo'shimchalari vositali to'ldiruvchi vazifasidagi kishilik olmoshlari o'mniga ham ishlatilishi mumkin. Bu holatda ham egalik qo'shimchalarini old ko'makchilar va fe'l shakllariga birikadi. Masalan:

گفتمت goftam-at *porsidam* “undan so ‘radim”, az-aš ازش پرسیدم nemikonam “men ularga bāvarešān با ورشان نمیکنم *senga aytdim*”, ishonmayman”

## **Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar**

1. *Gapning qanday bo'laklari ikkinchi darajali bo'laklar deb ataladi? Aniqlovchi. To'ldiruvchi. Hol.*
  2. *Bir necha bosqichli tobelik ifodalangan ikkinchi darajali bo'lak guruhi atamasi qanday ma'noga ega?*
  3. *Gap tarkibida to'ldiruvchining qanday turlari ishlatiladi?*
  4. *Vositasiz to'ldiruvchilar qanday fe'l-kesimlar bilan ishlatiladi?*
  5. *O'timli fe'l-kesimning vositali to'ldiruvchini boshharishi .*
  6. *"Kuchli boshharuvli" fe'llar .*
  7. *Vositasiz to'ldiruvchining ro ko 'makchisi bilan ishlatilishi shart holatlari.*
  8. *Ko 'makchining tushib holishi holatlari.*
  9. *rā ko 'makchisini ba'zi hollarda nima almashtirib turishi mumkin?*
  10. *Vositasiz va vositali to'ldiruvchilar fors tilida qaysi atamalar bilan nomlanadi?*

## ***O'n uchinchi mavzu***

### **Aniqlovchi (Sefat)**

- 1.Postpozitiv aniqlovchilar**
- 2.Izofiy aniqlovchilar**
- 3.Old ko'makchili aniqlovchilar**
- 4.Murakkab aniqlovchili (sifatdoshli) oborotlar**
- 5.Prepozitiv aniqlovchilar**

#### **Tayanch so'zlar va iboralar:**

***Aniqlovchi, postpozitiv aniqlovchi, prepozitiv aniqlovchi, izofa, izofiy bog'lanish, old ko'makchili, aniqlovchi, murakkab aniqlovchili oborotlar.***

Aniqlovchi gap tarkibidagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalangan har qanday bo'lakka tegishli bo'lishi mumkin. Uzi aniqlayotgan so'zga niso'z birikmasiatan joylashishiga harab aniqlovchilar postpozitiv va prepozitiv aniqlovchilarga bo'linadi.

#### **Postpozitiv aniqlovchilar**

Aniqlovchilarning bu turi fors tiliga ko'proq mos va tegishli bo'lgan gap bo'lagi hisoblandi. Bir so'zni aniqlayotgan ikki yoki undan ortiq aniqlovchilar o'zaro teng bog'lovchi (va) yoki izofa orqali bog'lanadi. Postpozitiv aniqlovchilar aniqlanmishga izofa yoki old ko'makchilar yordamida birikadi.

#### **Izofiy aniqlovchilar**

Aniqlovchilar aniqlanmish so'zga izofa yordamida biriksa ular izofiy aniqlovchilar deb ataladi. Izofiy birikuv so'zlarning o'zaro birikuvi turi bo'lib, eroniylarni g'arbiy guruhiga ko'proq tegishlidir. Bunda so'zlar o'zaro -e (ye) tovushi orqali bir-birlariga birikadi. Izofiy birikuv tufayli eronshunoslikda atributiv so'z birikmalari deb nomlanuvchi izofiy so'z birikmalari tashkil etiladi. Izofiy birikmalar so'z birikmalari sintaksisi bo'limida tavsiflangan. Bu bo'limda biz butun izofiy birikmani emas, balki uning ma'no kengaytiruvchi qismi, ya'ni aniqlovchilarini ko'rib chihamiz.

Postpozitiv aniqlovchilar vazifasida quyidagi so'z birikmalari ishlataladi:

- a) sifatlar (asliy va niso'z birikmasiyi):

د وست بیوفا سبز *barg-e sabz* “yashil barg”, *dust-e bāvafā* *vafodor do ‘st’*, حمل و نقل آبی *haml-o nayl-e ābi* “suv transporti” va b.

Asliy sifatlarning qiyosiy daraja shakli ham aniqlovchi vazifasini bajarishi mumkin:

با صد ای بلندتری خواند *Bā sedā-ye bolandtar-i xānd*.  
“Balandroq ovoz bilan o ‘qidi”.

b) otlar:

یاد داشت های مسافرت *yāddāsthā-ye mosāferat* “safar xotiralari”, طلا پول *pul-e talā* “tilla pul”, شهر تهران *šahr-e Tehrān* “Tehron shaxri” va b.

v) predmetning tegishliligini ifodalovchi olmoshlar:  
کشور ما *keşvar-e mā* “bizning mamlakatimiz”

g) tartib sonlar:

طبقه پنجم *tabaye-ye panjom* “beshinchi qavat” va b.

d) fe'lning infinitiv shakli:

حال کار کردن *hāl-e kār kardan* “ishlash istagi” va b.

ye) sifatdoshlar:

روی خواندن سال گذشته *sāl-e gozašte* “o ‘tgan yili”, *ru-ye xandān* *“kuluvchi, ochiq chehra”* va b.

Arab tilidan o‘zlashgan sifatdosh shakllarni ham shu qatorga kirlitsa bo‘ladi:

کالا های واردہ *kālāhā-ye vārede* “import qilingan tovarlar” va x.k

### Old ko‘makchili aniqlovchilar

Old ko‘makchili aniqlovchilar rolida ot yoki otlashgan so‘zlar ishlatiladi. Bunday aniqlovchilar aniqlanmish bilan old ko‘makchi vositasida birikadi:

اطمینان به فرد *etminān befardā* “ertangi kunga ishonch”.

Bunday aniqlovchilar old ko‘makchidan tashqari aniqlanmishga izofa bilan ham bog‘lanishi mumkin.

Mobāreze-ye bā malax "chigirtkaga qarshi kurash ", خدمت به هدف rasidan-e be hadaf "maqsadga yetishish"; وطن xedmat-e be vatan "vatanga xizmat"

### Murakkab aniqllovchi (sifatdoshli) oborotlar

Bunday oborotlar ba`zi o`tgan zamon sifatdoshlari (kamdan kam hollarda hozirgi zamon sifatdoshlari), arab sifatdosh shakllari va ,shuningdek, ba`zi sifatlarning o`zlariga tobe so`zlar bilan birikishdan qosil bo`ladi. Murakkab aniqllovchili oborotlar fors tili uchun niso`z birikmasiatan yangi qodisa bo`lib, qali unchalik keng tarqalmagan. Bunday oborotlardagi sifatdosh va sifatlar bosh so`z vazifasini bajarib, tobe so`zlar bilan old ko`makchilr vositasida birikadi, masalan:

تالار پر از مردم *tālār-e por az mardom “odamlarga to 'la zal”.*

Quyidagi misollarda esa bunday oborotni izofa yordamida tashkil etishini kuzatamiz.

کامیون حامل گندم *kāmyun-e hāmel-e gandom “bug'doy orttirilgan yuk mashinası”.*

Murakkab aniqllovchi tarkibiga kiruvchi so`zlar o`zaro ma`no va innotatsiya munosabatlari orqali birikadi. Aniqlanmish bilan bunday oborotlarning bog`lanishi izofali yoki izofasiz bo`lishi mumkin.

### Prepozitiv aniqlovchilar

Fors tilida prepozitiv aniqlovchilar vazifasida postpozitiv aniqlovchilarga niso`z birikmasiatan anchagina kam miqdordagi so`zlar ishlatala oladi.

Prepozitiv aniqlovchilar aniqlanmish bilan izofa yordamida yoxud aksariyat hollarda izofasiz birikadi. Shu nuqtai nazardan ularni ikki guruhga bo`lish mumkin:

1. Bitishuv usulida birikuvchi aniqlovchilar.
2. Izofa yordamida birikuvchi aniqlovchilar.

Bitishuv usulida birikadigan prepozitiv anqlovchilar quyidagilar bilan ifodalanadi:

a) asliy sifatlarning orttirma darajasi: بهترین دانشجو *behtarin danešju* "eng yaxshi student"

b) -omin qo'shimchasi yordamida yasaladigan tartib sonlar: دومنین

دovvomin molāyāt “ikkinchı uchrashuv” ملاقات

v) ko‘rsatish, so‘roq, aniqlash-umumlash olmoshlari: هر دانش آموز *har danešāmuz* “*har bir o‘quvchi*”, کدام استاد *kodām ostād?* “*qaysi professor?*”, همین نطق *hamin noty* “*mana shu nutq*”.

g) postpozitiv holatda ham ishlatila oladigan ba`zi sifatlarning oddiy darajasi: دیگر رفقا *digar rofayā* “*boshqa o‘rtoqlar*”.

Izofa yordamida birikadigan prepozitiv aniqlovchilar vazifasida quyidagi so‘zlar ishlatiladi:

a) aniqlash olmoshlari

سرتاسر *sartāsar* - جمله *jomle*, کلیه *kolliyē*, تمام *tamāme*, همه *hame*, سایر *sāyer* - “*boshqa, qolgani*”.

دکандаран بازار *Jomle-ye dokāndārān-e bāzār*. Bozordagi do‘kondorlarning barsasi

b) خود *xod* o‘zlik olmoshi.

v) ko‘plik shaklidagi bosh so‘zdan oldin turadigan sifatnng orttirma darajasi: آسمانхраш *āsmānxarāšhā* بلندترин *bolantarin* “*eng baland osmono ‘par binolar*”.

### Mustaqil ta‘lim uchun savol va topshiriqlar

1. *Aniqlovchilarning turlari.*
2. *Fors tiliga aniqlovchilarning qaysi turi xos?*
3. *Fors tilida aniqlovchi va aniqlanmishning birikuv usullari .*
4. *Izofa va izofiy bog‘lanish ?*
5. *Postpozitiv izofiy aniqlovchilar vazifasida qaysi so‘z turkumlari ishlatiladi?*
6. *Old ko‘makchili aniqlovchi.*
7. *Murakkab aniqlovchili oborotlar.*
8. *Prepozitiv aniqlovchi .*
9. *Prepozitiv aniqlovchilarning aniqlanmish bilan bog‘lanishida qanday sintaktik vositalar ishlatiladi?*

## *O'n to'rtinchi mavzu*

### **Hol**

- 1.Hol haqidagi umumiyl tushunchalar.**
- 2.Harakat tarzi holi.**
- 3.O'rin holi.**
- 4.Payt holi.**

**Tayanch so'zlar va iboralar:**

***Hol, ravish, olmosh-ravish, harakat tarzi holi, miqdor holi, o'rin holi, payt holi.***

### **Hol xaqida umumiyl tushunchalar**

Gap tarkibida hol vazifasini ravishlar, old ko'makchili yoki old ko'makchisiz otlar, sifatlar, olmoshlar, sifatdoshlar, ravishdoshlar va fe'l infinitivlari bajara oladi.

Ular orasida ravish hol vazifasini eng ko'p bajaradigan turkum sifatida ajralib turadi. Umuman olganda, mazkur sintaktik vazifa ravishlar uchun asosiy hisoblanadi. Hol vazifasini bajarish, shuningdek, ravishdoshlar uchun ham asosiy xususiyatdir.

Asliy sifatlar ko'proq xarakat tarzi holi vazifasida ishlatsa, fe'lning infinitivi aksariyat hollarda jumladagi maqsad va payt hollari sifatida qo'llanadi.

Otlar (old ko'makchili va old ko'makchisiz) fayat ob'ekt munosabatlarni ifodalamanagan, shuningdek, aniqlash - holat, makon, payt, sabab, maqsad, miqdor va ba'zi boshqa ma'nolarni ifodalovchi birikmalar tarkibiga kirmagan holatdagina hol vazifasini bajaradi.

Jumla tarkibida hol vazifasini ravish ma'nosiga ega bo'lgan sintaktik bo'linmas turg'un so'z birikmlari ham bajarishi mumkin: از سير تا پيماز az sir tā piyāz "hammasi, boshdan oyoq".

Hollar o'zi ifodalaydigan ma'no yo'nalishlariga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi.

1.Ish-harakatning bajarilish tarzi yoki uning sifat jiqtidan xususiyatini ifodalovchi harakat tarzi hollari, masalan:

او بهتر از همه کار میکند *U behtar az hame kār mikonad. "U hammadan yaxshiroq ishlaydi".*

2. O‘rin, payt, sabab, maqsad va shart ma`nolarini ifodalovchi hollar ya`ni, o‘rin holi, payt holi, miqdor holi, sabab holi, maqsad-niyat holi, shart yo‘l berish holi.

### **Harakat tarzi holi**

Harakat tarzi hollari ham ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

a) ish-harakatning sifatini, xususiyatini aniqlovchi hollar:

من او را محکم بغل کرده ام *Man u-rā mohkam bayal karde-am.*  
“Men uni maqkam quchoqlab olgan edim”.

b) ish-harakat bjarilishining usuli, tarzini ifodalovchi hollar.

Harakat tarzi hollari ravishlar, asliy sifatlar, old ko‘makchili otlar, arab va fors sifatdosh shakllari va ان -ān qo‘shimchasili ravishdoshlar bilan ifodalanadi. Masalan:

خنده کنان *xande konān* “kulib”, گريه کنان *geryekonān* “yig‘lab”.

Harakat tarzi hollari, shuningdek, frazeologik so‘z birikmalari bilan ifodalanishi mumkin:

به هر قيمتى شده *be har yiymati šode* *“nima qilib bo‘lsa ham”*.

Quyidagi jumla tarkibiga diqqat qiling:

د رخت گردويى مثل گل بىابان پا ھايىش را جلو پىنجرە تكىيە داده است *Deraxt-e gerdui mesle gul-e biyābān pāhāyaš rā jelov-e panjare takiye dāde ast.* “Yong‘oq daraxti saqro devi kabi oyoqlarini deraza oldiga tirab olgan edi”.

### **O‘rin holi**

O‘rin hollari ham ma`nosiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1.O‘rin-joy ma`nosini ifodalovchi hol.

2.Ish-harakat yo‘nalishini ifodalovchi hol.

Ish-harakat yo‘nalishini ifodalovchi hollar ham o‘z navbatida uch kichik

turga bo‘linadi:

- a) ish-harakatning umumiyo‘nalishini ifodalovchi hol;
- b) ish-harakatning boshlanish o‘rnini ifodalovchi hol;
- v) ish harakatning bajarilish yo‘lini, masofasini ifodalovchi hol.

O‘rin- joy hollari joy, fazo, xona, xudud va shu kabi ma`noga ega otlar yordamida ifodalanadi. Bu otlarga old ko‘makchilar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan bo‘lishi mumkin. O‘rin joy hollari, shuningdek, اینجا injā, آنجا ānjā, کجا kojā, همینجا haminjā, همانجا hamānjā kabi olmosh ravishlar bilan ham ifodalanishi mumkin.

Ish-harakatning umumiyo‘nalishini ifodalovchi hollar ham old ko‘makchilar orttirilgan/orttirilmagan otlar yoki old ko‘makchi qo‘shilgan/qo‘shilmagan olmosh-ravishlar bilan ifodalanadi:

بلاخره کارش به اینجا کشیده است *Belāxare kār-aš be injā kešide ast. “Oqibat uning ishi shu yergacha cho‘zilib ketdi”*.

Ish-harakatning boshlanish o‘rnini ifodalovchi hollar ham old ko‘makchi az yoki izofali old ko‘makchilar qo‘shilgan otlar, ja az old ko‘makchisi orttirilgan olmosh ravishlar yordamida ifodalanadi. ja az old ko‘makchisi odatda tushirilib holdirilmaydi:

محترم از دالان برگشت *Mohtaram az dālān bar gašt. “Muhtaram yo‘lakdan qaytib kirdi”*.

Ish-harakatning bajarilish yo‘li, vositasini ifodalovchi hollar asosan asliy, izofali va murakkab ko‘makchilar qo‘shilgan otlar bilan ifodalanadi:

نامه را توسط بندہ ارسال نمودند *Nāme-rā tavassot-e bande ersol namudand. “Nomani men orqali jo‘natishdi”*.

## Payt holi

Payt holi vazifasida:

- a) ravishlar – حا لا *hālā - hozir*, سابقاً *sābeyan - ilgari*, اکنون *aknun* - *hozir*, همیشه *hamiše - doim*, همواره *hamvāre - muntazam, doim*.
- b) old ko‘makchi qo‘shilgan va qo‘shilmagan otlar – صبح *sobh - tong, ertalab*, طرف شب *taraf-e šab* “kechga tomon”
- v) old ko‘makchi birikkan fe’l infinitivlari - پس از آمدن *pas az āmadan*, وقت خواندن *dar vayt-e xāndan*;

g)sanoq va tartib sonlarning otlar bilan birikmasi: پنج سال *panj sāl*, ھا سال *dahhā sāl*.

Payt hollari o‘zlari ifodalayotgan payt ma`nosining qirralariga ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Payt chegarasini belgilamaydigan hollar:

ھمیشہ *hamiše*, همواره *hamvāre*.

2. Paytni aniq ko‘rsatadigan hollar:

حال تا *tā be hāl*, هنوز تا به *tā hanuz*.

### **Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar**

1. *Gapning qaysi bo‘laklari hol deyiladi va uning forscha nomlanishi qanday?*
2. *Qaysi so‘z turkumlari hol vazifasini bajaradi?*
3. *Hol vazifasini bajarish qaysi so‘z turkumining asosiy vazifasi hisoblanadi?*
4. *Otlar qanday holatlarda gap tarkibida hol vazifasini bajara oladi?*
5. *Turg‘un so‘z birikmalarining hol vazifasini bajarishi.*
6. *Hollarning o‘z ma`nosiga ko‘ra guruhlanishi.*
7. *Harakat tarzi hollari.*
8. *O‘rin hollari.*
9. *Payt hollari.*

## ***O'n beshinchi mavzu***

### **Hol(davomi)**

1. **Miqdor-me'yor holi.**
2. **Sabab holi.**
3. **Maqsad - niyat holi.**
4. **Yo'l berish holi.**
5. **Izohlovchi .**
6. **Ikkinch darajali bo'laklarning ajratilishi.**

**Tayanch so'zlar va iboralar:**

***Hol, miqdor-me'yor holi, sabab holi, maqsad-niyat holi, yo'l berish holi, izoqlovchi, ajratish, inversiya.***

### **Miqdor - me'yor holi**

Vaqt davomiyligi, makon kengligi, umuman, miqdor, og'irlik, qiymat va qajmni ifodalovchi hollar miqdor - me'yor hollari guruhiga kiradi. Bunday hollar vazifasini miqdor ma`nosini beruvchi ravishlar, o'lchov-me'yor ma`nosidagi otlar, miqdor-o'lchov ma`nosini ifodalovchi ismiy birikmalar bajaradi:

بـسـيـار *Besyār-ko 'p, juda, xeyli-ko 'p, juda, ziyād-ko 'p,*  
سـه توـمن *kam-kam, boland - baland, yuqori, āhestə- sekin, se tuman - uch tuman* va h.k:

Jumla tarkibiga diqqat qiling:

مـصـبـتـ كـرـدـنـ خـيـلـىـ *Sohbat kardam xeyli āheste. "Juda ohista suhbatlashdim".*

### **Sabab holi**

Sabab holi vazifasida quyidagi old ko'makchilar bilan birikkan otlar, olmoshlar va fe'l infinitivlari ishlatalidi:

بـه عـلـتـ دـرـ نـتـيـجـهـ اـزـ *dar asar-e, az dar natije-ye, be ellat-e va h.k.*

در اثر نوشتن نامه خیلی طول چشمانش سرخ شده

دبو د *Dar asar-e naveštan-e nāme-ye xeyli tul česhmānaš sorx-e sorx šode bud.*  
“*Juda uzun xat yozgani sababli ko‘zları qip- qizarib ketgan edi*”.

Demak, sabab holi kesimdan anglashilgan ish-harakatning qaysi sabab va bois tufayli, nimaning natijasida amalga oshishini ifodalaydi, deb xulosa qilish mumkin.

### **Maqsad - niyat holi**

Maqsad - niyat xolining vazifasi esa ish-harakatn qaysi maqsad-niyatni ko‘zlab bajarilishini ifodalashdir. Mazkur vazifada برای *barāye*, جهت *jehat-e*, مخض *maxz-e* kabi old ko‘makchilar bilan biriktirilgan otlar, olmoshlar va fe’l infinitivlari ishlatiladi:

مصوب جهت انجام معاینه عمومی برای کشف سل صادر گردید *Mosavvebe jehat-e anjām-e moāyene-ye omumi barāye kaſf-e sell sāder gardid.* “*Sil kasalligini aniqlashga haratilgan umumiy ko‘rik o’tkazish uchun tegishli qaror e’lon qilindi.*”

Bu jumlada asosiy maqsad-niyat holidan tashqari ikkilamchi, ya’ni harakat holidan anglanadigan ish-harakatga tegishli maqsad -niyat holi ham ishlatilgan.

### **Yo‘l berish holi**

Yo‘l berish holi otlar, olmoshlar va fe’l infinitivlarining quyidagi old ko‘makchilar bilin birikish orqali ifodalanadi:

بـ وجود *bā vujud-e*, بـ خلاف *bā xelāf-e* va bـ وجود *bar*.

بـ وجود بیماری شدید موقع قرار سر کار بودم *Bā vujud-e bimāri-ye šadid mouye'-ye yarār sar-e kār budam.* “*Qattiq kasal bo‘lishimga qaramay, va`dalashgan vaytda ishda edim*”.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yo‘l berish holi xuddi to‘siqsiz ergash gaplar kabi ish harakatga to‘siq yasashga intiladi, ammo ish-harakat mazkur to‘siqqa haramay bajarilaveradi.

### **Izohlash**

Izohlash ot yoki otlashgan so‘zlar, so‘z birikmalari bilan ifodalanishi mumkin. Izoqlovchi aniqlanayotgan so‘zga bitishuv usuli bilan yoki izofa yordamida birikadi:

کشور ایران .. *kešvar-e Irān .. “Eron nomli mamklakat..”*.

تخت به نام *benām-e*, izoqlovchi aniqlanmishga عنوان *taxt-e onvān-e* kabi old ko‘makchili va izofali birikmalar yordamida ham birikishi mumkin.

Izohlash ba`zi hollarda ya`ni izoqlovchi bog‘lovchisi yordamida amalga oshiriladi:

جناب ولی و بانو... مقابل حضرت آقا پیشنهاد شهر ما *Janābe vāli va bānu...* ایستادند، یعنی در مقابله به اصطلاح روحانیون. *moyābel-e hazrat-e Āyā Pishnamoz-e šahr-e mā istādand, ya`ni dar moyābel-e, be esteloh, ruhoniyun.* “*Janobi xokim va xonim... xazrati oliylari shaqrımız imomi oldida to‘xtadilar, ya`ni boshqacha qilib aytganda, ruhoniylar oldida*”.

Izoqlovchi aniqlanayotgan so‘zni tavsiflaydi va aniqlaydi, shuningdek, u predmet va qodisalarning nomlanishini ham ko‘rsatish mumkin.

Izoqlovchi yordamida kaso‘z birikmasi kor, egallangan mavqe va maqom ifodalanadi:

خاتمی رئیس جمهور اسلامی ایران... *Xātami ra`isjomhur-e eslomiye Irān...*

“*Eron Islom Respublikasi prezidenti Xotamiy...*”

Predmet va qodisalarning aniqroq ifodasi ham izoqlovchi yordamida amalga oshadi.

## **Ikkinchi darajali bo‘laklarning ajratilishi**

Fors tilida gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini ajratish ularning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi va gapning qaysi bo‘lagiga tegishli ekanligiga harab turli grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ajratib ko‘rsatish uchun eng ko‘p qo‘llanadigan usul gap bo‘laklarining odatiy o‘rinlaridan qo‘zg‘atib boshqa joyga olishdir. Masalan, ifodalananayotgan ma`nolarni ta`kidlab ko‘rsatish uchun vositali to‘ldiruvchilar, o‘rin hollari va holning ba`zi boshqa turlari fe’l kesimdan so‘ng qo‘yilishi ham mumkin. Bu uslub “inversiya” atamasi bilan nomlanadi va ko‘proq og‘zaki til xususiyati hisoblangsada, badiiy adabiyotda ham juda keng qo‘llanadi:

سوال کنید از او *Soāl konid az u “Undan so‘rang”.*

از کنار ما رد شدند و رفتند توی مقبره آخر *Az kenār-e mā rad şodand va raftand tu-ye maybare-ye āxer.*

“Bizning yonimizdan o‘tib ketdilar va oxirgi maqbara ichiga kirdilar”.

Sifat bilan ifodalangan postpozitiv aniqlovchini ajratib ko‘rsatish

aniqlanmishdan so‘ng izofa o‘rniga aniqlik artikli (یا وحدت) yo-ye vaxdat) qo‘yish bilan amalga oshiriladi:

عاقل مردی *mard-i āyel “oqil odam”*

Agar bunday postpozitiv aniqlovchi ot-kesimning ot qismiga tegishli bo‘lsa, aniqlovchi bog‘lamadan keyin qo‘yiladi:

ایران کشورист کشاورزی *Irān kešvarist kešāvarzi.* “Eron qishloq xo ‘jaligiga ixtisoslashgan mamlakat”.

### **Mustaqil ta`lim uchun savol va topshiriqlar**

1. *Miqdor-me’yor holi.*
2. *Sabab holi.*
3. *Maqsad-niyat holi.*
4. *Yo ‘l berish holi.*
5. *Mazkur hollarni ergash gaplar bilan qiyoslash mumkinmi?*
6. *Izoqlovchi.*
7. *Izoqlovchining aniqlanmishga birikish usullari.*
8. *Ajratib ko ‘rsatish va uni amalga oshiruvchi grammatik vositalar.*
9. *Vositali to ‘ldiruvchi va hollarning ajratib ko ‘rsatilishi.*
10. *Postpozitiv aniqlovchilarning ajratib ko ‘rsatiliysi.*
11. *Ot-kesimning postpozitiv aniqlovchisi qanday ajratib ko ‘rsatiladi?*

### **O’quv qo’llanmasi mavzulari bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Л.С.Пейсиков. Вопросы синтаксиса персидского языка М., 1959. 387-397 б.
2. Ю.А.Рубинчик. Основы фразеологии персидского языка., 1981.
3. Ю.А. Рубинчик. Грамматика современного персидского литературного языка.
4. А.А. Вертенников. О типах рамочной конструкции глагольных фразеологизмов персидского языка. В сборнике: Актуальные проблемы строя иранских языков. Изд. МГУ, 1988, с. 3-17
5. Асқарова М., Абдураҳмонов Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Фан, 1986. - 231 б.
6. – Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар. -Т.: Фан, 1978. – 104 б.
7. Ўзбек тилида муракқаблашган содда гаплар. – Т.: ФАН, 1969. -174 б.

8. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тили назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –228 б.
9. Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. –Т.: Ўқитувчи, 1984. –147 б.
10. Нематов Х., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. –Т.: Университет, 1999. –55 б.
11. Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тилида гап бўлаклари типологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1988. – 212 б.
12. Расулов И. Ҳозирги ўзбек тилида бир составли гаплар. –Т.: Фан, 1974. –236 б.
13. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили(содда гап синтаксиси учун материаллар). – Т.: ЎзМУ нашриёти, 2002. – 120 б.
14. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. -Т.: ЎМЭ, 2002. -168 б.
15. Баскаков А.Н. Предложение в современном турецком языке.-М.: Наука, 1984. – 200 с.
16. Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения// Вопросы грамматического строя. -М., 1955. –С.389-436.
17. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л.: АН СССР, 1960. – 446 с.
18. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. -709 с.
19. Маматов М.Ш. Вторичный предикат, выраженный суб-стантивными формами в современном узбекском языке. –Т.: Фан, 1990. –140 с.
20. Мещанинов И. Члены предложения и части речи. –Л.: Наука, 1978. –388с.
21. Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском литературном языке. – Т.: Фан, 1984. - 125 с.